

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?

Afsuski, maktabda tarbiysi og'ir o'quvchilar tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun sinfdan sinfga qoldirish jazosini tiklash maqsadga muvofiq. Lekin bu maktab reytingiga ta'sir qilmasligi kerak. Qolaversa, tarbiysi og'ir o'quvchilar bilan ishslash guruhlarini tashkil qilish yana bir chora bo'lishi mumkin. Bunday bolalar bilan maxsus guruh shug'ullanishi zarur. Guruhga organ xodimlari va mahalla komitetlari jalb etilishi, uning o'z nizomi va vakolatlari bo'lishi kerak.

Umidaxon SOLIBOYEVA

Fikrimecha, o'qituvchining bilimi attestatsiya bilan belgilanmasligi kerak. Masalan, bir geografiya o'qituvchimiz shunday metodlar bilan dars o'tadi, qiziqmagan o'quvchi qolmaydi. Lekin ikki safardan beri hatto 2-toifaga ham o'tolmayapti. Yana bir rus tili o'qituvchisi 15 bolaga dars o'tadi, ammo darsida o'quvchilar telefon o'ynab, bir-biri bilan urishib o'tiradi. U oliv toifaga ega, sertifikati bor...

Ra'no OBIDINOVA

Kuch - bilm va tafakkurda

Ma'rifat

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2024-yil 13-noyabr chorshanba № 46(9527)

Xalq ziyolilari gazetasi



Akbar ZAMONOV

"SHE'RNI XO'B TANIR ZAVQ BILA..."

Muhammad
Shayboniyxonning
nazmdagi
faoliyatiga doir
mulohazalar

Xazina



Navoiy memuar biografik asari "Xamsat ul-mutahayyirin"ni to'lig'icha fors-tojik adabiyotini olama yoygan dohiy san'atkori Abdurahmon Jomiy sharafiga bag'ishlab yozgan. Asarda Jomiy va Navoiyning yoki Hirot madaniy muhitida qizg'in faoliyat olib borgan qalam ahlining ma'rifiy majlisi, adabiy gurungi, bir-ikki so'z doirasida munozara qilishi xususida ham ibratga yo'g'rilgan xabarlar uchraydi.



Ushbu xabar asarning eng ta'sirli va qiziqarli lavhalaridan biri hisoblanadi. Lavhada Navoiyning zamondoshlari bilan bo'lib o'tgan majlis va unda xonanda kuylagan qo'shiqlardan biriga e'tibor, so'zga munosabat va Navoiy, mug'anniy, mir majlis (ziyofat boshlig'i), majlis ahli, Abdurahmon Jomiyga nomani olib borgan va mutafakkirning javobini olib kelgan ishonchli vakil hamda Abdurahmon Jomiyning hakam sifatida ishtiroki masalasi bayon qilingan. Qizig'i shundaki, majlis ahli buyuk Navoiyning fikrini darhol ma'qullamaydi, balki o'zlariga ma'qul bo'lgan so'z to'g'risida fikrlarini ham dadil aytalaydi. Ya'ni, Navoiyga "Sen dag'i nevchun bu so'zda as'hob bila muvofiq emassen?" deb, o'z mulohazalari bildirgani diqqatga sazovordir. Ulug' Navoiy ularning fikr-mulohazalarini hisobga olib hurmat ko'rsatani va samimiyyat bilan xalq orasida keng tarqalgan garov bog'lash sharti odatiga amal qilib garov bog'lagani aytalgani qiziqarli. Mazkur holat bizga Navoiy va Jomiy boshqargan Hirot madaniy muhitida sog'lom ijodiy muhit mavjudligidan xabar beradi. Bu voqeasini qalam ahli uchun nafaqat maroqli, balki ibratga molikdir. Fikrimiz isboti uchun Sulton Husayn Boyqaroning "Risola" kitobida Hirot madaniy muhitida minglab shoir, adib va olimlarning faoliyat ko'rsatishi xususida yozgan ma'lumotini eslaylik. Demak, yuqorida biz ta'kidlagan madaniy, ma'rifiy, adabiy jarayonlarning qizg'in rivojida mana shunday sog'lom muhit katta ahamiyatga ega bo'lgan va ushbu muhitda ko'plab durdona asarlar yaratilgani badiiy so'z tarixidan ham ma'lum va mashhurdir.

Ta'sirli shundaki, Navoiy hayotiy hikoya xulosasini juda qisqa, ammo o'ziga xos tantanavor ruhda yakunlagan. O'qiyimiz: "Tonglasi bu so'z shuhrat tutti. El yod tutub majolisda naql qilurlar erdi".

Biz o'quvchilar mazkur voqeani to'liq tushunishi, anglashi uchun hayotiy hikoyani aynan keltiramiz. Chunonchi:

"Majlis ahli mutaa'yin xush tab'el erdilar va miri majlis (majlis raisi) ham xushtab' va podshohnishon. Mug'anniy(kuychi, ashulachi, sozanda)g'a ba'zi

NAVOIY QO'LLAGAN

e'tiroz yuzidin va ba'zi tanbeh yuzidin dedilarkim: "Sirishki man hama durr shud" o'quma, "durr shud" o'rnig'a "xun shud" o'quki, "durr shud"ning ma'nosi yo'qtur. Miri majlis dag'i ahli majlisg'a mutafiq bo'ldi. Bu faqir hech nima demadim. Majlis huzzori faqirg'a dag'i mashg'ulluq buniyod qildilarkim: "Sen dag'i nevchun bu so'zda as'hob bila muvofiq emassen?" deb, faqir dedim: "Men ul jonibmenkim qoil ado qildi, ya'ni:

Misoli qatravi boron sirishki man hama durr shud rostdur, balki mundoq kerak".

Barcha hujum qilib, faqirg'a g'ulu qildilar. Faqir ayttimkim: "Chun siz barcha bir jonib bo'ldungiz, men yalg'uz. Sizga o'z muddaomni sobit qila olmon, ammo bir kishini hakamliqg'a musallam tutsangiz, garav bog'larmen".

Barcha ittifoq qilib ayttilarkim, Hazrati Maxdum olam afozilining hakami, balki hokimidur, alarni musallam tutmas kishi yo'qtur. Chun so'z mung'a qaror topti. Faqir alar bila garav bog'lab, majlisning kayfiyatini va ul bahsning sababin va ul baytda "xun" lafzi munosibroq yo "durr" lafzi muvofiqroqdur deb, maqsudning isnodin hamul zamon bitib, ul Hazrat xizmatlarig'a yiborildi. Bir yaxshi zamondin so'ngra borg'on kishi javob kelturdi va ul Hazrat bu misrani bitib erdilarkim:

*"Suxan durr" astu taalluq ba go'shi shah dorad
Mazmuni: So'z dur (inju), shoh qulog'iga taalluqi
bor.*

Ul jamoat mulzam bo'lub, faqirg'a alarning tarbiyat va madatlari bu nav' yetti. Ma'lum emaski, hargiz kishi bu nav' muxtasar javob hech savolda aytmish bo'lg'ay. Tonglasi bu so'z shuhrat tutti. El yod tutub majolisda naql qilurlar erdi".

Hikoya Navoiy tilidan bayon qilingan va muallif o'z nutqini "faqir ayttim" deb tushuntirgan. Dialogik nutqqa xos tasvir quyidagicha: "Majlis huzzori faqirg'a dag'i mashg'ulluq buniyod qildilarkim: "Sen dag'i nevchun bu so'zda as'hob bila muvofiq emassen?" deb, faqir dedim: "Men ul jonibmenkim qoil ado qildi..." Yoki hikoyada yozma nutqqa xos lavha ikkita bo'lib, birinchisi, Jomiyga yuborilgan maktub: "...majlisning kayfiyatini va ul bahsning sababin va ul baytda "xun" lafzi munosibroq yo "durr" lafzi muvofiqroqdur deb, maqsudning isnodin hamul zamon bitib ul Hazrat xizmatlarig'a yiborildi". Ikkinchisi esa Jomiydan kelgan javob maktub: "Bir yaxshi zamondin so'ngra borg'on kishi javob kelturdi va ul Hazrat bu misrani bitib erdilarkim:

"Suxan durr" astu taalluq ba go'shi shah dorad".

Ko'rinadiki, Jomiyni hakamlikka majlis ahli tanyaydi. Muallifning garovda g'olib bo'lishi, nashidasi hamda Jomiyning qisqa va mantiqli javobiga oshgan hayrati, e'tirofi shunday tasvirlangan: "Ul jamoat mulzam bo'lub, faqirg'a alarning tarbiyat va madatlari bu nav' yetti. Ma'lum emaski, hargiz kishi bu nav' muxtasar javob hech savolda aytmish bo'lg'ay".

Tasvir ijodkorlarning qizg'in muloqotiga, birbirining so'z va fikriga befarq emasligi, badiiy asar, she'r yo qo'shiq matnida har bir ishlatalgan so'z qalam ahlining maqsadiga, so'z muddaosiga xizmat qilishini o'rgatadi. Muloqotlarni jonli, ta'sirli, hayotiy tasvirlash uchun Navoiy poetik nutqning o'zaro dialogik nutq turidan unumli foydalangan. Uni ma'lum ma'noda besh qismga bo'lib o'rganishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu lavhada Navoiy ustoz Abdurahmon Jomiyning daqiq munaqqid ekanligiga va munozarali vaziyatlarda odillik, rostlik bilan hakamlik qilish iqtidoriga ham ishora qilgan.

Demak, mazkur lavhada Mir majlis, mug'anniy, majlisda qatnashuvchilar, Navoiy, vakil, Abdurahmon Jomiy kabi qahramonlar tilga olingan, ammo asar xususiyatidan kelib chiqib fikrlasak, asosiy diqqat Abdurahmon Jomiyning buyuk shaxsini ko'rsatishga qaratilgan. O'zbekiston Qahramoni S.G'aniyeva aytganidek, Alisher Navoiy bu asarni xotira fonida yozgan. Demak, muallif mazkur hayotiy lavhani qimmatli kitobiga yozib qoldirishni ma'qul ko'rар ekan, so'z bilan bog'liq bunday qizg'in jarayonlar ham Navoiy, ham Jomiy hayotida ko'plab bo'lganiga ham ishora qilgandekki, Navoiy shulardan birinigina kitobga kiritgan.

O'ylab qarasak, Navoiy "Xamsa"da so'zga bag'ishlab alohida bob, fasllar yozgan va "Hayrat ul-abror"ning "So'z ta'rividakim..." degan 14-bobida so'zni jahon bog'iga mengzar ekan, uni *dur, durdona* deb sifatlaydi va shunday baytni o'qiyimiz:

*Donayi durr so'zini afsona bil,
So'zni jahon bog'ida durdona bil.*

Demak, Navoiy *durr so'zini* yurakdan chiqarib qo'llagani va ma'no qatlamlarini yaxshi tushungani uchun majlisda xonanda kuylagan qo'shiq matnida kelgan *durr so'zini* hech ikkilanmay yoqlagan.

Yoki dostonning "Ko'ngul ta'rividakim..." nomli 17-bob xotimasida Navoiy soqiyiga murojaat qilib yozar ekan, so'z *chamani* tasviriy ifodasini qo'llagan:

*To topibon xush takallum tuzay,
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.*

Xullas, yuqorida biz tahlil qilgan hayotiy lavha so'zga bag'ishlangan fasl, boblar bilan ham ma'lum ma'noda mushtaraklik kasb etadi. Jomiyning "Suxan durr" astu taalluq ba go'shi shah dorad" degan javobi didaktik xususiyatga ega. Birinchidan, Ollohnning Kun amrini, ikkinchidan, mumtoz muarrix Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" kitobida yozilgan "So'zlar shohi – shohlar so'zi" degan hikmatni yodga soladi. Uchinchidan, bu o'rinda Navoiy talmeh san'atining yashirin usulidan unumli foydalanim, so'z shohga taalluqli degan izohida shoh va shoir Sulton Husayn Boyqaro ijodiga ham ishora mavjudligini anglash qiyin emas.

Umuman olganda, asarning mazkur lavhasi bizga nafaqat Jomiy va Navoiyning, balki bir madaniy muhitda ijod qiluvchi shoir, adib, muarrix, san'at ahlining o'zaro adabiy ta'sir va ichki madaniyatidan ham xabar beradi.

Endi Navoiy maroq bilan qo'llagan va asar matnida lingopoetik vazifa bajargan *arzoniy* so'zi borasida to'xtalsak. *Arzoniy* so'zi lug'atlarda bag'ishlash, loyiq ko'rish, sazovor bo'lishi, bilish kabi ma'nolariga ega so'z ekani yozilgan. Alisher Navoiy lirik va nasriy asarlarida *arzoniy* so'zini "ko'nglimni ayla arzoniy", "ofiyati arzoniy tut", "salomate arzoniy tut", "jonni arzoniy tut" shaklida, birinchidan, kamtarlik bilan o'zi, ikkinchidan, ulug' zamondoshlariga, uchinchidan, olam ahliga, to'rtinchidan, ustozlariga, xususan, Abdurahmon Jomiyga nisbatan mahorat bilan qo'llagan. Navoiy *arzoniy* so'zini asar matnida muallif sifatida o'zi va oriflar tilidan bayon qilgan. Masalan, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da ustoz Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan fiqrani unga bag'ishlangan duo va duoga yo'g'rilgan ruboiy bilan yakunlaydi va murojaat she'riy san'atidan unumli foydalanim, Ollohga murojaat qilib, o'zining so'zlarini, so'z mulkini olam eliga baxshida qilgan Abdurahmon Jomiyni dunyo ahliga sazovor ayla, loyiq ko'rgin, degan o'zining tilaklarini "Olam eliga bu jonni tut arzoniy" deb shunday durdona satrlar bitgan:

SO'Z VA TASVIRLI IFODA XUSUSIDA

*Yo Rab, bu maoniy durrining ummoni,
Bu donish-u fazl gavharring koni!
Kim, aylading oni olam ahli joni,
Olam elig'a bu jonni tut arzoni.*

Mazkur ruboiyga ko‘p navoiyshunoslar murojaat qilishgan, ammo ruboiy matnida kelgan *arzoni* so‘zi maqola muallifi tomonidan ilk marta tahlilga tortildi.

“Mahbub ul-qulub”ning 46-tanbehida ulug‘ shoir ushbu so‘zni lutf va kamtarlik bilan o‘ziga nisbatan mohirona tarzda, ya’ni “tutma arzoni” kabi bo‘lishsiz fe’l shaklida yozgan, ammo so‘zda bo‘lishlilik ma’no va mazmuni ifodalangan:

*Meni bedilg‘a, yo Rab, bu ko ‘ngulni tutma arzoni,
Oni mendin ayirma, dag‘i mensiz tutmag ‘il oni.*

O‘rganishimizga ko‘ra, Navoiy o‘z davrida malik ul-kalom deb e’zozlagan ustozi mavlono Lutfiy *arzoni* so‘zini o‘z devonida bir marta, ya’ni Shohrux mirzoning kasallikdan sog‘ayib ketishi va buning shukronasi uchun malika Gavarshodbeginning qilgan ehsoni munosabatiga bag‘ishlab yozgan qasida matnida qo‘llagan. Va o‘zining bu taxt va toj sizga baxshida bo‘lsin, bebadal zotingiz elga kerak, umringiz ziyyoda bo‘lsin kabi istaklarini ifodalagan hamda *osoni-arzoni*, *arzoni-imkoni* kabi go‘zal qofiyalar ham yaratgan:

*Xaloyiq bildilar endi bu Sultonijahon qadrin,
Kishiga mushkul ish tushmay
bilinmas qadri osoni.
Jahonda mehribon begin bila
boqi bo‘lung, yo Rab,
Bu taxt-u toj bo‘lsun to qiyomat sizga arzoni.
Bani odamg‘a bo‘lguncha boqiy davlat imkoni.*

Bobur “Boburnoma” memuarida *arzoni* so‘zini bir marta ishlatganini ko‘ramiz.

Navoiy “Hayrat ul-abror” dostoni muqaddimasida basmala yozgan, u aslida ma’lum ma’noda “Xamsa”ning barcha dostonlari muqaddimasiga taalluqidirki, bir shohbaytni keltiramiz:

*Yo ‘l yomon-u yaxshisidin yema g‘am,
Bismilloh, degil-u qo‘yg‘il qadam.*

Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining 13-bobini Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlagan. Bobga “Safo jomingin sofi oshomi mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madda zillahul-oliy vasfikim, vasfg‘a sig‘mas va ta’rifikim, ta’rifga rost kelmas va ul hazrat iltifotining quyoshi bu xoksori tiyra ro‘zgor holig‘a partav solg‘onning izhori va ul quyosh tarbiyatidin bu tufroqqa zohir qilg‘an guli nasrin, balki gunogun rayohin osori va “Tuhfat ul-abror” tuhafi mutolaasidin nazm rishtasig‘a tortmoqning sababi”, deb nasrda sarlavha qo‘yan.

Bob avvalida Navoiy bir, ikki oy o‘tib baxt va xirad rahnamoy bo‘lib Jomiy huzuriga boradi. Nuran Maxdum uning miyig‘ida kulib qo‘lida “Tuhfat ul-abror” kitobini ushlab turgan qiyofasini tasvirlagan. Eski charx aylanib, ushbu kitob Jomiyning “Maxzan ul-asror” va “Matla’ ul-anvor”ga javoban yozgan falfasif yidaktik dostoni ekanini aytgan. Va o‘zida bu kitobni o‘qish ishtiyoqi paydo bo‘lganini gapirgan. Keyin Jomiy bu kitobini fors tilida yozganini, o‘zi esa “Hayrat ul-abror”ni o‘zbek(turkiy) tilda yozishini aytgan va ma’lum ma’noda “O‘zni biyiklar ipiga bog‘ladim” tarzidagi ijodiy rejasi bilan o‘rtoqlashgan.



Kulib, qo‘lida o‘z kitobini ushlab turgan Jomiy portretining tasviri:

*Kulgu bila qildi ishorat manga,
To ‘hfa bila berdi bashorat manga,*

*Kim oliban boshtin ayog‘ig‘a boq,
Qil nazar avroqig‘a boshtin-ayoq.*

*Olig‘a jon naqdini sochtim ravon,
Oldim-u o‘ptum, dog‘i ochtim ravon.*

*Boshtin-ayoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar, “Tuhfat ul-abror” edi.*

Navoiy holati:

*Shavqida ko ‘ksumni shigof ayladim,
Jildig‘a ko ‘nglumni g‘ilof ayladim.*

*Chun o ‘qumoq zamzamasi bo ‘ldi bas,
Ko ‘nglum aro dag‘dag‘a soldi havas.*

Shoir niyati:

*Forsi o ‘ldi chu alarg‘a ado,
Turki ila qilsam ani ibtido.*

*Forsi el topti chu xursandliq,
Turk dog‘i topsa berumandliq.*

Yozish rejasi, ya’ni “O‘zni biyiklar ipiga bog‘ladim”.

*Menki talab yo ‘lida qo ‘ydum qadam,
Bordur umidimki, chu tutsam qalam,*

*Yo ‘ldasa, bu yo ‘lda Nizomiy yo ‘lum,
Qo ‘ldasa, Xusrav bila Jomiy yo ‘lum.*

*Nukta surudida ravo bo ‘Imag‘ay,
Buki Navoiy g‘a navo bo ‘Imag‘ay.*

*Kahfi baqo ichra alar bo ‘lsa gum,
Men ham o ‘lay robiuhum kalbuhum.*

Navoiy “Saddi Iskandariy”ning 5-bobida so‘zni “iqlim” so‘zi bilan birga qo‘llab, so‘z iqlimi tarzida tasvirli ifoda tuzgan va badiiy ijod, xamsanavislik, so‘zning qudrati kabi masala va muammolarga urg‘u

bergan va o‘zining ham “Xamsa”si bilan so‘z iqlimi da sharaf topishini gapirib o‘tgan:

*Karam aylab iki qo ‘lum qo ‘ldangiz,
So‘z iqlimi sori meni yo ‘ldangiz.*

Aslida so‘z iqlimi tasviriy ifodasini Navoiy birinchi marta “Hayrat ul-abror”ning Xusrav Dehlaviy sharafiga bag‘ishlab bitilgan 12-bobida qo‘llagan va uni so‘z iqlimining shohi deydi:

*Ganja shahi ganja fishon, payrov ul.
Shah bu so‘z iqlimi aro Xusrav ul.*

Bobda Navoiy so‘z iqlimini so‘z mamlakati shaklida ham qo‘llagan, ya’ni so‘z iqlimi Xusrav Dehlaviy va so‘z mamlakati obrazli ifodasi Nizomiy Ganjaviyga nisbatan ishlatilgan.

Navoiy “Xamsa”da buyuk salaflariga qilgan murojaatlarda qo‘l, qo‘lim, qo‘ldangiz, so‘z, so‘z so‘rab qilgan murojaatlari ko‘plab uchraydi. Mazkur duoga yo‘g‘rilgan baytda ham Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi xamsanavislarga katta umid bog‘lagani aytilgan. Bunga misol qilib “Saddi Iskandariy”ning 6-bobini keltirishimiz mumkin. Bob aynan “So‘z ta’rifida...” deb nomlanadi. Unda Navoiy so‘z, so‘z qudrati, badiiy so‘z ifodasi, ta’siri bilan bog‘liq ilg‘or fikrlarini bayon qilgan.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining yakunlovchi 89-bobi nafaqat beshinchil doston, balki ma’lum ma’noda muhtasham “Xamsa” yakunlanganidan ham xabar beradi. Navoiy “Xamsa” dostonlarida o‘zining nek niyati, so‘z muddaolari, oldiga qo‘ygan oliy maqsadi, uni yozishga qizg‘in tayyoragarlik ko‘rishi, ilhomiy onlari, ma’lum muddat yoza olmay qolgan paytlaridagi tushkun kayfiyati, chekkan mashaqqatlari yoxud Ollohdan madad, najot so‘rab qilgan iltijolari yoki so‘z, qalam, qog‘oz, dovtiga qilgan murojaatlari, tavba va tazarrulari haqida juda ta’sirli, ibratomuz baytlar yozgan.

Ma’lumki, Navoiy har bir dostoni avvalida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi xamsanavis ustozlarini sharaflab alohida boblar bitgan. Ularda xamsachilik maktabi va asoschisi, an’ana hamda novatorlik masalalari, ijod jarayoni, uslub jilolari, tarixiy va adabiy dalillar xususida gapirgan.



Navoiyxonlik

Qog'ozga tushganidan buyon har bir davr xushovoz san'atkorlari tomonidan maqom nolasida ijro etilib kelinayotgan ulug' so'z dahosi merosiga oid mashhur:

*Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur
Kim, jonga qaro balo bo'lubtur –*

matla'li g'azal yaxlit holida Alisher Navoiy qalamiga mansub emas. Uning yuqorida tilga olingen birinchi baytini ulug' shoirning yaqin shogirdlaridan biri Mirzobek (aslida Mirzo Alibek) ismli yosh shoir bitgan. Bu haqda "Majolis un-nafois"ning ikkinchi faslida mana bu iqrorni o'qish mumkin: "Mirzobek – insoniyat va xush axloqlikda Xuroson va Samarqand mulkida yagona erdi. Tab' va fahm, otar-u tutarda bu ikki mulk yigitlari arosida saromadi zamona bu nav' ta'riflardin mustag'niy...". Shundan so'ng hazrat Navoiy g'azalning matla'sini keltirib, uning qo'sh va teskari qofiya turi bilan ziynatlanganini, uni davom ettirish yoxud unga o'xshatma yozish ancha dushvorligini ta'kidlaydi. Qizig'i shuki, Mirzobek shu va shu kabi baytlarni ko'p bitsa-da, negadir ularni yakuniga yetkaz-

g'azalning besh baytini taxmisga aylantirgan, ikki baytini esa takomiliga yetkazmagan. Meningcha, shoir o'sha ikki baytning poetik silsilasini uzviy ravishda davom ettira olmagan yo o'z misralaridan o'zi qoniqmagan yoxud o'sha davrda Xorazm hofizlari tomonidan ijro etilib yurilgan baytlargagina taxmis bog'lagan bo'lishi ham mumkin. Uning g'azal tarkibidagi:

*Majmuyi davoni dard qilding,
Dardingki mango davo bo'lubtur –*

hamda:

*To qildi yuzung havosi jonim,
Yuz sori ango havo bo'lubtur –*

singari baytlarni beshlik holiga keltirmasligi taxmis-chining juz'iy kamchiliqi bo'lib, bu nuqson muxammasning badiiy tarovatiga ziyon solmagan.

Tilga olingen g'azal asosida istiqlol she'riyatida to'qqizta taxmis yuzaga kelganini aniqladik. Avaz O'tardan so'ng bir asr o'tib bu g'azalga yana xorazmlik ikki shoir Oshiq Erkin va Komil Avaz taxmis bog'lagan. Shuningdek, yetmish yetti yoshda "Dil sadolari" nomli kichik devon tuzgan samarqandlik shoir Said Nabi Voqif, O'zbekiston xalq shoirlari Erkin Vohidov va Sirojiddin Sayyid, nufuzli adib va shoir Omon Muxtor,

Nuqtayi nazar

1980-yili akademik Vohid Abdullayevning oliy o'quv yurti talabalariga mo'ljallangan "O'zbek adabiyoti tarixi" nomli darsligi qayta nashr etildi. Unda muallif Mashrab faoliyati va adabiy merosini o'rganish tarixiga alohida bo'lim ajratib, fanga noma'lum bo'lgan shoir zamondoshlari to'g'risida ham to'xtalib o'tadi.

G'afur G'ulom "Ikki Mashrab" (1959) maqolasida Mashrab taxallusli ikki shoirni qiyosiy o'rganganida, Vohid Abdullayev Mashrab taxallusli bilan ijod qilgan yetti nafar ijodkor o'tganligini asosli tarzda isbotlaydi. Birinchisi – isfahonlik shoir Hakim Abdurazzoq, ikkinchisi – tabrizlik shoir Mir Husayn, uchinchisi – Mir Inoyatullo, to'rtinchisi – Sherozda vafot etgan Mirzo Ashraf, beshinchisi – hindistonlik Mashrab, oltinchisi – Hofiz Ro'ziboy, yettinchisi – namanganlik Rahimbobo Mashrabdir. Bularning deyarli barchasi XVII–XVIII asrlarda yashab, ijod qilishgan. Kitobda ayrim adabiyotshunos olimlar keltirayotgandek, Mashrab 1657 yoki 1653-yili Andijonda emas, balki 1640-yili Namanganda tug'ilganligi, 1711-yili Mahmud Qatag'on tomonidan Balxda osib o'ldirilganligi qayd qilinadi. Biroq akademik Vohid Abdullayevning Mashrab haqidagi bu ma'lumotlari aniq bo'lsa-da, negadir ayrim adabiyotshunoslar bu sanalarni asossiz ravishda inkor qilib, ularni turlicha ko'rsatishga harakat qilishadi.

Mashrabning tug'ilgan yili masalasida
aslida kim haq?Vohid Abdullayevmi yoki boshqa
opponentlar?

Quyida shu haqda so'z yuritamiz. Keyingi yillarda Rahimbobo Mashrabning tug'ilgan yiliga oid turlicha sanalar(asosan 1653, 1657-y.) ko'rsatilmoida. Jumladan, Mashrab she'rlari tadqiqotchisi Jaloliddin Yusupov 2006-yili nashrha tayyorlagan Mashrab "Devon"iga kigan "Uni devonayi Mashrab derlar" nomli maqolasida shunday fikr bildiradi: "Maleho Samarcandi "Muzakkir ul as'hob" nomli tazkirasiда Rahimbobo Mashrab bilan Samarcandda ikki bor uchrashganligini, birinchi marta shoirni o'spirinlik payti, ya'ni soqol-mo'yabli endi chiga boshlaganida va ikkinchisi Samarcandga qalandar libosida, soch-soqoli barq urib o'sgan bir davrda kirib kelgani so'zlaydilar. Uning "maro" radifli forsiyda yozilgan she'ri namuna qilib keltiriladi. "Muzakkir ul-as'hob"ning 1688–1692-yillar oralig'ida yozilganligini nazarda tut-sak, Malehoning Mashrab bilan ilk uchrashuvni 1672-yili, ikkinchi uchrashuv esa 1690-yili bo'lgan. Yana bir dalil shuki, Is'hoq Bog'istoniy o'zining "Tazkirayi qalandaron" asarida: "Hazrati Shoh Mashrab mavatlari ayyominda umralarin 58 sana kechub erdi", deydi. Filologiya fanlari nomzodi Muhsin Zokirov dalil keltirgan ushbu tazkirani ko'rgan emasman. G'olibo bu fikr to'g'ri ko'rinadi... Bunda chiqadiki, shoh Mashrabning hayot yo'llari shunday: 1653–1711". "Tazkirayi qalandaron" asarining asl nusxasini aftidan, uni ilmiy muomalaga kiritgan Muhsin Zokirov ham ko'rmagan chiqar. Bu asar haqida M.Zokirov dastlab 1966-yili e'lon qilgan "Mashrab" nomli adabiy-tanqidiy ocherkida so'z yuritadi. Asar tazkira deb nomlansa ham, lekin tuzilishi jihatidan tazkirachilik andazalariga javob bermaydi. Asarning o'n bir bobli Mashrabning hayoti va ijodiga bag'ishlanganligi haqida ma'lumot beriladi-yu, lekin jamoatchilikka faqat besh lavhasi havola qilinadi, qolgan qismilari haqida biror sabab bildirilmaydi. Shuningdek, noshir qo'lyozma egasi Odilxon Zobir o'g'li ushbu qo'lyozmani sotmagani, uni o'z huzurida ko'rib chiqishga ruxsat berganligini aytadi, lekin M.Zokirov asarni yo ko'chirib, yo fotonusxasini olgan-olmaganligi haqida ham aniq fikr bildirmaydi. Ustoz, professor Abdurashid Abduq'afurov bu masalaga uzel-kesil nuqta qo'yish va kitobning asl nusxasini ko'rish uchun Muhsin Zokirovning xonardoniga tashrif buyurganligi, biroq bu kitobning hech qanday nusxasini ko'ra olmaganligini aytgan edi. Mayjudligi noma'lum bo'lgan "Tazkirayi qalandaron" asaridagi ma'lumotlar(xususan, shoir tug'ilgan yili sanasida ham) to'g'ri bo'lsa, nima uchundir Muhsin Zokirov o'zining "kashfiyoti"ga o'zi ishonmay Mashrab tavalludi sanasini

Bir bayt balog'ati

yoxud bir g'azalga o'n taxmis

magan. Ko'p hollarda chala qoldirgan yoxud yakuniga yetgan g'azalini ham asrab, avaylash zaruriyatini ko'p ham hisobga olavermagan. Shu bilan birga o'sha davrda mustahkam ijodiy taomilda bo'lgan bayoz yoki devon tuzish tajribasiga ham mayl ko'rsatmagan. Navoiyning mana bu ma'lumoti xuddi shu fikrni to'la tasdiqlaydi: "Agarchi oning tiliga bu nav' abyot ko'p o'tar erdi, ammo hargiz parvo qilib bir yerda bitimas erdi. Bu matla'in faqir tugotib, aning yodgori uchun devonda bitibmen...". Demak, Hazrat Navoiy matla'ni shogirdining xotirasini uchun tugal g'azal holiga keltirgan va devoni tarkibiga kiritgan.

Ma'no va shakl, ohang va ichki she'r o'lchovlari nuqtayi nazaridan g'oyat go'zal ziynatlangan o'sha baytni xuddi shu poetik mezonlar asosida izchil davom ettirish, yakuniga yetkazish, chindan ham, ulug' shoir aytmoqchi, nihoyatda maholdir. Buni faqat zukko tab' ahli a'zolarigina uddalashlari mumkin. Yuqoridagi iqbosdan ma'lum bo'lyaptiki, Mirzobek qancha aql-idrok va fahm-farosat egasi bo'lmasin, o'z ijod namunalariga beparvo bo'lgan. Bu hodisa, tabiiyki, Alisher Navoiyga ma'qul tushmaydi. Ulug' shoir Mirzobekka bir necha bor tanbeh bersa-da, aftidan, uning fe'lidiagi beparvolikni bartaraf etolmagan ko'rinadi.

Navoiyshunoslar Mirzobek asli samarcandlik ekani, Navoiyga va uning ustozni Sayid Hasan Ardasherga farzand kabi aziz va mo'tabar yigit bo'lganini aytishgan. Har holda yosh, o'smir yigitning bevaqt vafoti ulug' shoirni ancha qayg'uga qo'yanan.

Alisher Navoiyning ilk devoni mundarijasidan o'rindan mazkur g'azal o'sha davr hofizlari tomonidan nafis majlislarda sevib ijro etilgan. Uning tanbur navosi bilan uyg'un holdagi ijrosini ulug' shoirning o'zi ham sarmast bo'lib tinglagen. Xullas, g'azalning musiqiy ijrosi hanuzgacha davom etib kelayotgani bejiz emas. G'azalning poetik takomilimi, ma'shuqa husn-u lato-fatini tarannum etishda shoirning o'zga g'azzallaridan tubdan farqlanishini, ichki va tashqi qofiyalanishidan tashqari aks va tazod san'ati zaminiga asoslanganini, uni darj etishda Navoiy Mavlono Lutfiy tajribalaridan ozuqlanganini ta'kidlash joiz.

Mirzo Alibek bayti Alisher Navoiy ijodida go'zal bir g'azalning yaratilishiga turtki bergen bo'lsa, endi Navoiy g'azali o'zbek lirkasida, ayniqsa, istiqlol she'riyatida o'nlab muxammaslarning vujudga kelishi ga zamin hozirlagan. Ushbu g'azalga dastlab XIX asr Xorazm adabiy muhitining yetuk namoyandalardan biri Avaz O'tar muxammas bog'lagan. Shoir negadir

qashqadaryolik Jumaqul Rajab va Abdul Rahmon, surxonaryolik Mengnor Ollomurod ham mazkur g'azalga muxammas bog'lagan. Izlanishlar davom ettirilsa, aytilgan raqam yanada ortishiga shubha qilmaymiz.

E'tibor va e'tirofga molik mazkur muxammaslarda izdoshlik mezonlariga jiddiy va izchil amal qilingan. Muhimi, ularning birortasini ham jo'n yoxud sayoz asar sifatida qayd etib bo'lmaydi. Biroq taxmislarning birortasini ham zarracha kansitmagan holda bir oddiy haqiqatni ta'kidlab o'tmoqchi edim. Mazkur taxmislarni orasida Navoiy tilga olgan "ko'zi ne balo qaro"ning jabr-u zulmini yanada yorqin va ta'sirli qilib namoyon etishda O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid alohida mahorat ko'rsatgan:

*Kim qoshinga mutbalo bo'lubtur –
Ul ikki qilich aro bo'lubtur;
Dil ichra iki yaro bo'lubtur;
Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur
Kim, jonga qaro balo bo'lubtur;*

Bu yerda gap zinhor "ikki qilich" yo dilning "ikki yara"si haqida borayotgani yo'q. Taxmischi o'ziga xos ramz va timsollar orqali oshiqning ma'naviy va jismoniy suratini tasvirlashga erishgan. Bu kabi nozik ifoda birliklarini taxmisning boshqa har bir bandida alohida kuzatish mumkin. Ammo Sirojiddin Sayyid negadir boshqa taxmischilardan farqli o'laroq maqta'da o'z taxallusini tirkashni istamaydi. Aftidan shoir "Siroj" yo "Sirojiddin Sayyid"ni umumiyl g'oyaga yo'naltira olmagan yo buni istamagan bo'lishi ham mumkin. Bu hodisa zinhor kamchilik emas, ehtimol, ayni o'rinda fazilatdir.

Ta'kidlash o'rinniki, yuzaga kelgan muxammaslarning birortasi ham ashula holida ijro etilmaydi. Ehtimol, bu benazir taxmislarning davr maqomchilarini e'tiboridan chetdaligi bilan izohlana. Ammo XV asr sharoitida Mirzo Alibek boshlagan, ulug' so'z dahosi intiosiga yetkazgan g'oyat go'zal g'azal yaratilgandan buyon mumtoz maqom jo'rligida ijro etilib muxlislar ko'ngliga zavq bag'ishlab kelmoqda. Uni hozirgi kunda O'zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiy tanburi va xonishi sadolarining uyg'unligida tinglash niyoyatda maroqlidir.

Abdurahmon PIRIMQULOV,
Islom Karimov nomidagi
TDTU OF Kengash kotibi,
filologiya fanlari doktori

Mashrab qachon tug'ilgan?

**Akademik Vohid Abdullayev
haqmidi yoki opponentlar?**

bir necha marta g'alat, bir-biriga zid tarzda keltiradi. Jumladan, u 1966-yili e'lon qilgan "Mashrab" adabiy-tanqidiy ocherkida "Shu tariqa shoirni 1657-1658-yillarda tug'ilgan deb aniq aytish mumkin", deydi. Biroq, bu ma'lumot to'rt sahifa o'tgach, quyidagicha o'zgaradi: "U(Mashrab – E.M.) taxminan 24-25 yoshlarida, ya'ni 1670-1671-yillarda Qashqarga boradi", deb o'z ma'lumotiga qarshi chiqadi. Chunki oddiy arifmetika bo'yicha(1670–24=1646) bu sana 1646-yilga to'g'ri keladi. M.Zokirovning 1990-yili e'lon qilingan "Men ham inson naslidan" maqolasida bu sana yana bir karra o'zgaradi. Unda "Mashrab shahid bo'lganda 70 yoshlardan oshgan edi. Xulosa, 1640-41-yillar uning tavallud yiliga to'g'ri keladi", degan uchinchi, ammo haqqoniy sanani keltiradi. Muhsin Zokirovning o'zi ishonmagan "Tazkirayi qalandaron" asariga va undagi ma'lumotlarga J.Yusupov ham asoslanishga botinolmay, o'rinni ravishda "ushbu tazkirani ko'rgan emasman", deb bu ma'lumotlarning haqqoniyligiga shubha qiladi. Darhaqiqat, shubhali, bor-yo'qligi noma'lum, "kashfiyot"chisi tongan asardagi sanalarga ishoniш to'g'ri emas, albatta. J.Yusupov asoslanayotgan Maleho Samarqandiyining "Muzakkir ul-as'hob" tazkirasida keltirilganidek, Rahimbobo Mashrab Samarqandga ikki marta kelgan, bиринчи мarta kelganida uning soqol-mo'ylabi sabza urayotgan bo'lgan. J. Yusupovning keltirishicha, Mashrab bilan Maleho shu vaqtida, ya'ni tadqiqotchi belgilagan 1672-yili uchrashgan ekan. Endi Abdurauf Fitratning mazkur ma'lumotiga ahamiyat bering: "Maleho o'zining asl tazkirasini hijriy 1101(mil.1689)-yilda yozib bitirgan. Asl tazkirada Mashrab haqida hech narsa yozmagan. Ikki yil so'ngra, 1103–1691-yilda, tazkiraga bir ilova yozg'on, tazkira bitkandan keyin ko'rishkanlaridan shul ilovada ma'lumot beradir". Anglashiladi, Maleho 1689-yilgacha Mashrab haqida hech qanday xabar bermagan! Mashrab haqidagi ma'lumot keyinchalik paydo bo'lgandan so'ng u ilova tarzida 1691-yili tazkiraga kiritilmoxda. Fitrat Mashrabning navbatdagi Samarqandga kelish sanasini belgilashda ham ehtiyyot bo'ladi: "Malehoning rivoyatiga ko'ra, Mashrab Namanganga 7-8 yil turg'ondan keyin-(ba'd az sohibi mahosin shudan) Samarqandga kelg'on. Onda bir muddat qolg'on. So'ngra Namanganga qaytib, ondin Qashqar, Badaxxon, Balx shaharlariga borg'on va shu safardan unga "pishiqliklar" hosil bo'lg'on, ya'ni she'r va tasavvuf kishisi bo'lib, qalandar qiyofasida yana Samarqandga qaytg'on. Maleho bu Samarqandga qaytishning qaysi yilda ekanini ochiq ko'rsatmaydir. Shunday bo'lsa ham, ba'zi 1689–91-yillar orasida bo'lg'onin guman qilish mumkin".

Endi tabiiy savol tug'iladi: qaysi manbaga asoslanib domla J.Yusupov "Malehoning Mashrab bilan ilk uchrashuvlari 1672-yilda ... sodir bo'lgan" degan ma'lumotni keltirmoqda? Asossiz keltirilayotgan ushbu birgina sanaga ishonib Mashrabning tug'ilgan yili sanasini 1640-yildan 1653-yilga o'zgartirishga hech hojat yo'q.

Zaynal Rizayev Muhsin Zokiriy kabi bu yillarni aniqlashda bir necha sanani ko'rsatadi. Z.Rizayev 1962-yili yozgan "Qo'lyozmalarni varaqlaganda" nomli maqolasida shoir tug'ilgan yilni aniqlamay, vafotini 1700-yilgacha bo'lgan davrda deb belgilaydi. 1963-yili e'lon qilgan "Mashrab haqida yangi ma'lumotlar" maqolasida esa shoir yashagan davr 1670–1711-yillar deb, 1966-yili nashr etgan "Mashrab va uning izdoshlari" maqolasida bu sana 1636–1664-yillar deb o'zgartiriladi.

Tadqiqotching so'nggi ma'lumoti bo'yicha Mashrab 28 yil umr ko'rgan bo'lib chiqadi. Xo'sh, bu ma'lumotlarning qaysi biriga ishoniш mumkin? Bizningcha, akademik Vohid Abdullayev shoir tavalludini 1640-yil deb belgilagini har jihatdan to'g'ri va asosli. Fikrimizni quyidagicha izohlasmiz. Ta'kidlaganimizdek, o'tmishtida yaratilgan tazkiralarda Mashrabning tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumot yo'q. Lekin "Tazkirayi Fahmiy" kitobida uning qatl etilgan yili hijriy 1123(1711)-yil deb ko'rsatilgan. Zaynal Rizayevning so'nggi ma'lumoticha, Mashrab 1664-yili vafot etgan. Mashrab Bozor Oxun vafotiga bag'ishlab "Bulbul biraft az bog'i ilm" misrasi bilan ta'rix

yozgan. Bu ta'rix abjad hisobida quyidagicha bo'ladi: be alif g'ayn ayn lom mim = bog'i ilm 2 + 1 + 1000 + 70 + 30 + 40=1143. "Bulbul" (64)ning ilm bog'ini tark etganligi sababli 1143 dan 64 ni ayiramiz va Bozor Oxun vafot etgan sanaga ega bo'lamiz: 1079-hijriy=1668-milodiy. Demak, Z.Rizayevning ko'rsatgan sanasi ilmiy asosga ega emas. Chunki Mashrab 1664-yili vafot etgan bo'lsa, u 1668-yili ustozi vafotiga bag'ishlab ta'rix yozolmagan bo'lardi.

Ta'kidlaganimizdek, Jaloliddin Yusupov Rahimbobo Mashrabning tug'ilgan yilini 1653-yil deb belgilayapti. Mashrab yuqoridagi ta'rix she'rni yozganida J.Yusupovning hisobi bo'yicha 15 yashar o'spirin bo'lib chiqayotir. Mashrabni 1657-yili tug'ilgan deb o'ylowchi tadqiqotchilar hisobiga ko'ra Rahimbobo 11 yoshga kigan bola bo'ladi. Bu yoshda Rahimboboning fors tilida, yana abjad hisob-kitoblari asosida ta'rix she'r yozishiga ishonish qiyin. Yana bir qiziq hol. Tadqiqotchi "Shariat ahkomlarini mukammal egallagan Rahimbobo endi pirlari mullo Bozor Oxundan tariqat yo'llarini o'rganishga kirishadi. O'zlarida zohir bo'la boshlagan kashf-karomat hollarini she'rga solib bayon eta boshlaydi. 1668-yili ilm istab Samarqandga keladi. Zamonasining yetuk olimlari dargohida xizmatda bo'ladi. O'sha yil oxirlarida pirlari Bozor Oxun vafot etadi" degan ma'lumotni keltiradi. Bu ma'lumot tadqiqotchi Mashrab tug'ilgan sanasini 1653-yil deb belgilagach, 1668-yilda Bozor Oxun vafoti yiliga qadar yosh Rahimboboni yetuk shoir darajasiga yetkazishga urinish qilayotgandek tasavvur uyg'otadi. Agar Fitratning "Manqabaga ko'ra Mashrab Namanganda tug'ilg'on. Oilasi juda qashshoq bo'lg'on, onasi ip yigirib totib oila ovqatini topar ekan, ota-onasi uni 15 yasharligida Oxun mulla Bozor ismli bir shayxning tarbiyasiga beradilar" yoki "Malehoning ko'rsatishiga ko'ra, Mashrabning yoshliqta Andijondan Namanganga o'qish uchum kelgani, asfonadagi "15 yasharlig'ida mulla Bozor Oxun tarbiyasiga kigan" bilan ta'kid etiladir", degan jumlalari asosida mulohaza yuritsak, yanada g'alati manzaraga guvoh bo'lamiz. Chunki Mashrab 1653-yili tug'ilgan bo'lsa, u 15 yoshida Bozor Oxun vafot etgan yili (1668-y.) uning dargohiga ilm olgani borgan bo'ladi. Bu esa Mashrabning Bozor Oxun dargohida Abdurauf Fitrat keltirgan 7-8 yillik ta'lim olgan davrini amalda yo'qqa chiqaradi. Rahimbobo Mashrabning So'fi Olloyor bilan uchrashganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. So'fi Olloyor taxminan 1620 (1616–1622-yillarda tug'ilgan degan taxmin ham bor) yilda tug'ilgan. Ikki shoir o'rtasida 34 yosh farq bo'lishi ularning qadrond suhbatdosh bo'lganligini amalda inkor etadi.

"Devonayi Mashrab" qissasida Mashrabning Abulg'oziy Bahodirxon bilan uchrashuvni haqida rivoyat keltirilgan. Abulg'oziy Bahodirxon 1664-yili 61 yoshda vafot etgan. Agar haqiqatan ham Mashrab Abulg'oziy Bahodirxon bilan hattoki uning vafot yili uchrashgan bo'lsa, 1653-yil sanasi bo'yicha Rahimbobo endigina o'n yoshdan o'tgan bo'lib chiqadi.

Mashrab Buxoroga borganda mullolarning ulug'i Maylono Sharif bilan bahsga kirishadi va u yerdagi zohidlarni ayovsiz tanqid qiladi. Nosiriddin to'ra(Ibn Amir Muzaffar)ning "Tuhfat uz-zoirin"(XIX asr) asarida keltirishicha, Maylono Sharif tarixiy shaxs bo'lgan. U 1617(1026-hijr)- yili tug'ilib, taxminan 1688(1100-hijr)-yili vafot etgan. Ko'kalidosh madrasasi mudarrisi va hukmron guruh vakillarining murshidi sifatida tanilgan. U bilan uchrashgan Mashrab 1653-yili tavallud topgan bo'lsa, unda Mashrab va Maylono Sharif o'rtasidagi yosh farqi 36 yilni tashkil qiladi. Bunday yosh tafovuti qissa mantiqiga va bayon xronologiyasiga zid:

Mashrabning:

*Adashgan qari qulman, navha bo'ldi korim-u borim.
Soqol ogardi, tish tushdi, sovuq bo'lganda bozorim, –*

misralaridagi shoir qiyofasi tasviri nisbatan ancha keksa yoshga ishora qilmoqda. Va yana dalil sifatida shoirning mashhur baytarinini keltirib o'tamiz:

*Yoshi yetmish birga yetgan bandayi raddi falak,
Mor-u kajdumlar bilan to'igan diliga rayb-u shak.*

Yoki:

*Yetmish yillik toat-u xayr-u saxovatlar bilan,
Ketsa mundin ro'siyo, man yig 'lamay kim yig 'lasun?*

Nima sababdan Mashrabning bu misralariga "taxmin" deb qarashimiz kerak? Alloma akademik Vohid Abdullayev bu baytlarga "yopishib olib" taxmin qilmagandir. Nima bo'lganda ham Mashrabning shunday she'rlari mavjud-ku! Agar buni inkor qiladigan biror asosli dalil bo'lsa, uni-da keltirish kerak edi.

J.Yusupovning keltirishicha, "1672-yili (Mashrabning – E.M.) Qashqar safari boshlanadi. Zamonasining eng yirik avliyolaridan buri, Ofoq(dinning ufqi, osmoni) deb dong taratgan yirik tariqat olimi Hidoyatulloh Ofoq xo'jaga murid tushadilar". 19 yashar Rahimboning shunchalik qisqa vaqt ichida "avliyoyi zamom" Ofoq xo'jaga murid bo'larlik darajaga erishishi o'z davri uchun martabali bir holat. Biroq biz qanchalik xohlamaylik Mashrabning 1672-yili, yana 19 yoshida eshonga shogird tushishining aslo iloji yo'q edi! Ofoq xo'jani Qashqarg, istab borgan kishi, biringchidan, uni u yerdan topolmas edi, ikkinchidan purni istagani uchun o'z hayotini xavf ostiga qo'yishi mumkin edi. Chunki Yorkent xoni Ismoilxon 1671-yili Hidoyatulloh xo'ja ibn Muhammad(Ofoq xo'ja)ni hokimiyat uchun kurashtosh qilaydi. Hidoyatulloh xo'ja Tibetga – Dalay Lama V ning huzuriga borib, bo'lib o'tgan voqealardan noligan bo'ladi. Dalay Lamaning topshirig'iga ko'ra Jung'oriya xuntayjisi(xitoycha: 皇太子, "Xan tay ji", boshqa nomi xuntayji – XIV asrdan boshlab qalmoq hukmdorlariga berilgan unvon – E.M.) buddaviy G'aldon Hidoyatulloh xo'ja bilan birgalikda Yorkent taxtini egallash uchun kurashtga kirishib ketadi.

Dastlab 1679-yili, ikkinchi safar 1681-yilda Ofoq xo'ja G'aldon Boshqutu qo'shini bilan Yorkent xonligi ustiga yurish qiladi. Oxir-oqibat ma'naviy ko'makdan uzilib qolgan Yorkent 1681-yili G'aldon tomonidan bosib olinadi. Jung'oriya tasarrufidagi qo'g'irchoq hukumat te-pasiga Ofoq xo'ja o'tiradi(Bu haqda keyingi "Mashrab haqidagi yangi ma'lumotlar" nomli monografiyamizda alohida to'xtalib o'tamiz). Aslida Mashrabning Qashqar safari quyidagi bosqichlardan boshlansa durust bo'ladi:

- 1640-yil – Namangan shahrida tavalludi;
- 1647-yil – Boshlang'ich ta'lim;
- 1655-yil – 15 yoshida Bozor Oxundan saboq olishning boshlanishi;
- 1662-yil – 22 yoshida Namangandagi tahlilni yakunlashi;

• 1662-yil – 22 yoshida Samarqandga birinchi marta kelishi;

• 1663-yil – 23 yoshida Qashqar safariga otlanishi;

• 1668-yil – Bozor Oxunning vafot etishi.

Agar Mashrab 1663–1670-yillar davomida Ofoq xo'ja dargohida bo'lganligini va u yerni tark etgach, 1671-yili Jung'oriya qaragan Iliga borib, Xuntayjining qizi Aboq bilan munosabatga kirishish davrini e'tiborga olsak, aynan shu vaqtarda Ofoq xo'ja ham Qashqardan chiqib, ajab emaski, Tibetdan Iliga kelgan bo'ladi.

Jaloliddin Yusupovning Mashrab she'rlarining nashri uchun qilgan mehnatlari, chekkan zahmatlari mislisiz ish bo'ldiki, u kishining bu sohadagi maqomi bilan ayni vaqtida hech kim tenglasholmasa kerak. Biroq ilmiy yangilikni keltirish asosli dalil-isbotni talab etadiki, ular niroyatda o'jar bo'lib, bizning istak va xohishimizga bo'y egmaydi. Turli farazlardan ko'ra, ustoz Vohid Abdullayev ilmiy asoslagan, shoirning o'zi keltirgan ma'lumotlar va tarixiy faktlarga suyanib fikr yuritsak, har jihatdan to'g'ri bo'ladi. Biroq asosli bir ma'lumot bo'lmay, taxminlarga o'ralashib qolaversak, bu xil munozaraning yakunlanishi amrimahol. Rahimbobo Mashrab tug'ilgan sanasiga (1640-y.) oid boshqacha fikrda bo'lgan tadqiqotchilar bundanda aniqroq va asosliroq bir dalilni keltirsra va bu masalaga qaytmas darajada uzil-kesil nuqta qo'ysalar, biz faqatgina xushnud bo'lardik. Agar dalillar bo'lmasa, yaxshisi bu masala xususidagi bahsga yakun yasash va shoirning tug'ilgan yilini asosli tarzda 1640-yil deb belgilash ilmiy nuqta yuzasidan to'g'ri bo'ladi. Ayni paytda uni o'zgartirishga hech qanday asos yo'qdir.

Teran tomirlar

Navoiy toshbosma devoni kotiblari: Shohmurod kotib



Biyuk shoirlar bu dunyodan o'tsa ham, ular yaratgan asarlар yashashda davom etaveradi. Bunga dalil sifatida o'rtalarda Navoiy asarlari qo'lyozmalarining qayta-qayta ko'chirilganini ko'rsatish mumkin. Kotibning qo'lda kitob ko'chirishi davom etayotganda Rusiya orqali litografik toshbosma stanoklar kirib kelishi bilan yana hazrat Navoiy asarlari, ayniqsa devonlari toshbosma holida nashr etila boshlandi.

XIX asrning 80-yillardan boshlab Alisher Navoiy devoni turli nomlarda litografik(toshbosma) matbaalar da ko'p marta chop etilgan. Boboxon Qosimxonov Navoiy asarlari chop etilgan 18 ta litografik bosmaxona ro'yxatini keltirib o'tadi. Bular Islombul, Bog'chasarov, Xo'qand, Xiva, Samarcand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlar da joylashgan tipografiyalardir. Hatto ayrim bosmaxonalar bu ro'yxatga kirmay qolgan, deyishimizga asos bor. Shaxsiy kutubxonamizga mansub bir devon bunga misol bo'la oladi. Negadir Yakovlev nomidagi litografik bosmaxona bu ro'yxatga kirmay qolgan. Yakovlev toshbosma matbaasida "Devoni Amir Navoiy" nashr etilgan(yili ko'rsatilmagan).

O'rtal Osiyoda yashab o'tgan xattotlarning 336 nafari haqida A.Murodov o'z asarida, M.Hakimov 500 yil davomida faqatgina Navoiy asarlari ni ko'chirgan xattotlar soni 300 dan ko'pligi, toshbosma litografiyaning deyarli yarim asrlik qisqa davrida (XIX asr oxiri – XX asr boshi) toshbosma nusxalarda 25 dan ortiq kotib Navoiy asarlari kitobatida qatnashganini ma'lum qiladi. M.Hakimov aytgan Navoiy asarlaring toshbosma nashri uchun matn tayyorlagan kotiblardan biri Shohmurod kotibdir.

Shohmurod kotib kim bo'lgan?

Mamlakatimizda litografik toshbosmaxonalar paydo bo'ldi. Biroq nashring asos matnini tayyorlash ilgari-dagidek, kotibning zimmasida qoldi. Ya'ni toshbosma kitob ishlab chiqarishda kotib va u yozgan matn eng asosiy omil bo'lgan. Kotib har doimgidek matn taqdirini hal etuvchi shaxs hisoblangan. Chunki kotib eski qo'lyozma, terma devonlardan foydalani yangi toshbosma devon uchun Navoiy she'rlarini saralagan. Kotiblar asosan qo'lyozma ham ko'chirgan. O'sha davr uchun bu tirikchilik manbayi ham hisoblangan.

Toshbosma kitob uchun matnni an'anaviy kitob ko'chiradigan kotiblar tayyorlagan, dedik. Xuddi qo'lyozma kitobdag'i kabi varaqda matn tayyorlanadi. Va shu qo'lyozmaning har varag'i tosh stanokka maxsus aralashma bilan 500 martagacha urib ishlatalib(ba'zan sal ko'proq, ba'zan kamroq) shuncha dona(asosan 500 ta) tirajda kitob

ishlab chiqarilgan. Toshbosma uchun ko'paytirilgan asl qo'lyozmalar qurban qilinadi, chunki ular o'ta yaroqsiz holga kelib qoladi. Bu hozirgi rotoprint, elektron nusxa ko'paytirishga o'xshaydi, farqi – asl qo'lyozma boy beriladi. Shu jihat uchun uni reproduktiv deya olmaymiz. Chunki reproduktivda original nusxalarga ko'paytiriladi-yu, asl originalga zarar yetmay butunliga saqlanib qoladi. A.Murodov o'zining "O'rtal Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" (1971) kitobida xat va xattotlik tarixinining sovet davrida o'rganilishi haqida keng to'xtalib o'tgan. O'zi ham xattot va sharqshunos olim sifatida bir necha yuzlab qo'lyozmalarni o'rganib, O'rtal Osiyodan yetishib chiqqan uch yuzdan ortiq kotiblar haqida ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Monografiyada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab o'tgan kotiblar haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Ularning ayrimlarini muallif ko'rgan yoki tamiyan, suhbatlashib ulardan(shogirdlaridan) ma'lumotlar ham yozib olgan. Shunday kotiblardan biri Shohmurod kotibdir. "O'rtal Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" kitobi muallifi A.Murodov Shohmurod kotib haqida boshqa xattotlarga nisbatan ancha batafsil yozib qoldirgan: "Muhammad Shoh Murod kotib Ne'mat o'g'li 1850-yili bog'dor oilasida dunyoga kelgan. Savod maktabini bitirgandan so'ng otasi sobiq Zanjilik mahallasidagi Dovud Xo'ja kotib degan xattotga topshiradi. Oz muddatda nasta'liq xatini nihoyatda go'zal yozadigan bo'ldi. Iste'dodli bo'lganidan ustozining qit'alaridan tashqari, Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Hiraviy va mashhur shikastanavis Yunusxo'ja Shahrisabziyning shikasta xati bilan yozilgan "Devoni Bedil"ga taqlid qilib shikasta xatlar bilan g'azallarni kitobat qildi. Biroq ko'chirish ishi bilan o'sha davrda kun kechirib bo'lmassi. U (Shohmurod kotib) to'quvchilarga tig', tarak yasab berar, shuning uchun bo'lsa kerak, ko'chirgan kitoblariga "Tig'band", "Shohmurod Tig'bandiy" deb imzo chekardi. Ba'zan yozgan she'rlarida ham shu taxallusni qo'llardi".

1867–1917-yillarda Toshkentda Laxtin, Berdiyonbax, Kaminskiy, Il'in, Porsey Turkestanskiy kuryer, Yakovlev, G'ulom Hasan va boshqalar tomonidan tipografiya va sal kechroq toshbosma (litografiya) matbaalar qurilib, milliy tillarda kitoblar nashr etila

boshlandi. Shu yerda qiziq bir faktni keltirib o'tmoqchimiz.

Aynan toshbosma chopxonalarning boshqa musulmon shaharlardan ko'ra, Toshkentda kech ochilganini V.V.Bartold quyidagicha tushuntiradi. Ruslarning kitob bosish usuli(1867-yildayoq Turkiston harbiy okrugi tipografiya ochgandi) "musulmon ahlining qarshiligiga uchrab ancha yillar amalga oshmadi. Musulmonlar ovrupoliklarning harbiy qurol-aslahalarini so'zsiz qabul qilgan bo'lsalar-da, "kofir"larning kitob bosish ixtirosini tatbiq etish uchun diniy amaldorlarning alohida farmoyishi kerak bo'lib qoldi. Chunki bosma kitoblardan foydalanish din bilan uzviy bog'liq bo'lgan maktab hayotini go'yo mutlaqo o'zgartirib yuborishi mumkin edi".

XIX asr – XX asr boshlari har bir yangilik bid'at, shaytonning ishi deb baholanardi: "moshina kiyim tiksa, chokida shayton bo'larmish", "velosiped g'ildiragida shayton aylanarmish". Yevropaning yangi fan-teknologik yutuqlari barcha sharq xalqlari tomonidan bir xil shunday qabul qilingan. Xalq hunarmandchiligi, qo'l mehnatining mehrli mahsulotiga o'rgangan sharqning millatparvar ziyo-lisi Mahatma Gandining o'zi qo'lda to'qib-tikib kiyim kiyganini eslasak, Sharqni tushungandek bo'lamiz. Shu o'rinda G'afur G'ulomning hikoyasidagi qahramonning keladigan poyezd uchun bir necha pud bedani vokzalga olib kelgani yodimizga tushadi.

Asosiy masalaga qaysak. Asosan qo'lyozma xattoti bo'lmish Shohmurod kotib ham litografiya uchun nusxa ko'chira boshladи. "Devoni Fuzuliy", "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Xamsayi Navoiy", Abdurahmon Jomiy asarlari, Devoni Amiri, "Shabistonni Fattohiy", "Devoni Bedil", "Hofiz Sheroyi" kabi kitoblar Shohmurod kotib qalami bilan ko'chirilib nashr etilgan. Bu davrda turli xattotlar tomonidan "Navoiy devoni" har xil nomlarda(mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 80 marta) eng ko'p chop etilgan.

M.Hakimov ham Shohmurod kotib xususida asosan A.Murodovning kitobidan foydalanib yozgan. Bundan tashqari, kotib tomonidan ko'chirilgan Navoiy devonlarini aniqlab, ularning ro'yxatini bergen.

Shohmurod kotib ham Ko'kaldosh madrasasida ta'lim olgan, biroq turli sabablar tufayli tugata olmagan. U o'z zamonasining ziyoli kishilaridan shoir Abdurakim Kamiy, qo'qonlik shoir va xattot Sulaymonqul Rojiylar bilan yaqin aloqada bo'lib, o'zaro xat almashishgan. Shohmurodning chiroyli xati bilan ko'chirilgan qo'lyozmalar va bostirilgan kitoblari keng tarqalib xattotga shuhrat keltiradi. Bundan

tashqari, uning bir qancha shogirdlar yetishtirgani ham ma'lum. Jumladan, Shohislom Shohmuhammad o'g'li, Husniddinxon Shamsiddin o'g'li, Abdushukur Shohmuhammad o'g'li, Abduqodir Murodov va boshqalar. Kotib o'z shogirdlariga nasx va nasta'liq xatidan dars bergan. Shohmurod xatida "Mufradot va murakkabot va risolayi xat" asari Tabriziyning husnixat haqidagi risolasi bilan birkalikda Toshkentda 1893-yili chop etilgan. Shohmurod kotib 1922-yili Toshkent shahrida vafot etgan.

Bizning taxminimizcha, Shohmurod kotib sharqshunos olim, filologiya fanlari nomzodi, "O'rtal Osiyo xattotlik san'ati tarixi" kitobi(1967) muallifi Abduqodir Murodovning o'z otasi bo'lgan. Qizig'i shundaki, Abduqodir Murodovning o'zi Shohmurod kotibga faqat shogird ekanligini aytib o'tgan, xolos. Ammo sovet davrida yashagan muallif bu haqda biror joyda ishorat etishga jur'at qilmagan. Hatto, negadir, bu asardan foydalangan keyingi davr olimlari(hatto XXI asrda ham) bu haqda qayd etmagan. "Sallali sharqshunoslari" maqolasida A.Qodirov va u kishining xattotligi haqida ma'lumot bergen filologiya fanlari doktori B.Bobojonov ham bu masalaga e'tibor qaratmagan.

Biz ham shu masalada ancha mu-lohazaga borib, bu ikki shaxsnинг ya-qinligini sezib, dastlab Shohmurod Abduqodir Murodovning bobosi, amakisi degan o'ya borganmiz. Tahllillardan so'ng ma'lum bo'ldiki(Abduqodir Murodov asr boshlarida tug'ilganini hisobga olsak), Shohmurod A.Murodovning o'z otasi ekan. 30-yillarda ziyorolar musulmoncha ism va ayrim qo'shimchalarni o'zgartirishga majbur bo'lgan. Bu hodisa bizda o'rganilma-gan. Universitetda ustoz Subutoy(asl ismi Sulaymon bo'lgan) Dolimov bir paytlar bizga bu haqda aytib bergan. Taxminimizcha, Shohmurod ismidan familiya yasashganda Shoh qo'shim-chasidan voz kechishgan ko'rinadi. Shunda Abduqodir Murodov eskicha ziyorli – Shohmurod kotib farzandi ekanligi hech kimning esiga kelmasligi ayon bo'lgan. Nailoj, bir paytlar qizil mafkura qatag'onlari Murodovlar xonardonini chetlab o'tishi uchun shu choralar ko'rildi.

Alisher Navoiy devonlari toshbosma nusxalarining boshqa kotiblari ular tuzgan devon nusxalari, nusxalarning umumiyl hamda o'ziga xos jihatlar haqida tadqiqotlar keyingi ishlarimizda davom etadi. Eng muhimi, mamlakatimizda XX asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan ziyyolilar merosi o'rgani-shining yo'iga qo'yilgani man-bashunoslari uchun ham ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Gulshan RAHIM,
filologiya fanlari nomzodi

NAVOIY QO'LLAGAN SO'Z VA TASVIRLI IFODA XUSUSIDA

(Davomi. Boshi 2-3-betlarda.)

Biz yuqorida tilga olgan mavzu va masalalar qisman “Saddi Iskandariy”ning 89-bobida ham bayon qilinganini esladik. Mazkur bob hajman katta bo‘lib, unda Navoiy baxti, iqboli qo‘llab, yuksak orzulari ushalib “Xamsa”ni yozib tugatgani xususida va besh doston nomi, mazmuni haqida to‘lqinlanib yozgan baytlari talaygina, ammo biz maqola hajmini hisobga olib, ba’zilarini tahlil va talqin etishga harakat qildik.

Birinchidan, Navoiy bobning dastlabki tasvirida xamsachilik maktabi haqida so‘z ochadi va panja, qo‘l,ilik so‘zlarini obrazli ifoda tarzida qo‘llaydi va iftixor tuyg‘usi bilan Nizomiyni ilk xamsanavis sifatida tanishtiradi hamda uning “Panj ganj”ini obrazli ifoda shaklida “panjay oftob” deya sharaflaydi:

*Ne panja erur, “Xamsa”i ganjsanj
Ki, dono qo‘yubtur otin “Panj ganj”.*

*Qay-u “Xamsa”kim, maxzani durri nob,
Qay-u panjakim, panjay oftob.*

Ikkinchidan, “Saddi Iskandariy”ni yozishga qo‘l urgan Navoiy gohida buyuk zamondoshi Jomiyining “Biyik himmatidin madadkorliq” istab va duo so‘rab uning huzuriga tez-tez borib turganini aytgan. Tasvirda u qulf va kalitni mahorat ila obrazli ifoda bilan qo‘llab, Jomiy kabi buyuklar duosi qulfn ochuvchi kalit ekanini to‘lqinlanib yozgan:

*Ki, har quflkim fathidur nopalid,
Anga bor eranlar duosi kalid.*

Navoiy Jomiydan duo oladi va mammuniyat bilan duo-ravo shaklida qofiya tuzganini ko‘rish mumkin:

*Ishim butmagiga duo ayladi,
Bori hojatimni ravo ayladi.*

Jomiy Navoiyning horg‘in ruhini ko‘tarib, unga keng fikr, yuksak ijodiy ong va tafakkur sohibi ekanin gapirib “Ki, so‘z tavri keldi sening shoninga”, “So‘z ichra senga pahlavonliq dog‘i”, “Umid ulki, bo‘lg‘ay tuyassar sanga”, deya katta umid beradi. Uchinchidan, Navoiy uyi Unsiyaga qaytar ekan, “Saddi Iskandariy”ning xotimasini yozishga kirishadi hamda qog‘oz, qalam va dovtini tayyorlaydi, besh doston nomini sifatlab, navbatma-navbat tilga olgan va ma‘lum ma’noda ijodiy laboratoriyanadan xabardor qilgan:

*Chu “Hayrat”qa soldim ko‘ngul rag‘batin,
Anga g‘olib ettim ulus hayratin.*

*Chu “Farhod”g‘a bo‘ldum andeshavar,
Tuz ettim base tog‘ – o‘lub teshavar.*

*Chu “Majnun” hadisig‘a tuzdum funun.
Base xalqni qildi shaydo junun.*

*Yana “Sab‘a”g‘a tab‘im o‘lg‘och qarin,
Eshittim yeti charxdin ofarin.*

*Skandarga til tortib ozar kibi,
Dedim oni “Saddi Skandar” kibi.*

*Tanosub bila aql nomovari
Dedi otini “Saddi Iskandariy”.*



To‘rtinchidan, Navoiy yakunlangan “Xamsa” qoralamasini g‘ilofga solib, ya‘ni “Savodin solib juzvdonim aro”, deya Jomiy huzuriga ravona bo‘ladi. Unga “Xamsa” xotimasi xususidagi xushxabarni aytadi va ko‘ngli to‘lib ustozini “...madadkor aning himmati”, “Ne ish tushsa, g‘avrung‘a yetguchi ul” deya to‘lqinlanib olqishlaydi. Beshinchidan, ma‘lum ma’noda Navoiy o‘zini rostlab olgach, “Uzun umrlar anda sarf ettilar” degan yuksak e’tirof bilan Nizomiy Ganjaviyni “Nizomiyki, nazm ahli ustodidur” yoki Xusrav Dehlaviyni esa “Ki, so‘z birla oldi Ajam to Arab” deb ulug‘laydi. Sharq mumtoz adabiyotining Sa’diy Sheroyi, Abulqosim Firdavsiy, Ahmad Unsuriy, Sanoiy, Xoqoniy, Anvari kabi buyuk so‘z Ustalarini, hatto unga rubboi yozib “So‘z mulkining Sohibqironi, qahramoni” deya sharaflagan munaqqidi Sultan Husayn Boyqaroni talmeh san‘ati vositasida yodga olgan. Ularning boy ijodiy merosiga o‘zining qiziqishi balandligini eslatgan.

Oltinchidan, Navoiy faxriya usulidan unumli foy-dalanib, endi gap va fikrni “Xamsa” muallifi sifatida o‘ziga qaratadi va o‘zining davlat, xalq, vatan xizmatidan ortib, ikki yillik muddatda “Xamsa”ni yozib tugatganini aytadi, biroq ijod qilgan daqiqa, damlarini jamlasa, olti oy vaqt sarflaganini faxr tuyg‘usi bilan tushuntirib bergen:

*O‘zung tinmayin xalq g‘avg‘osidin,
Qulog‘ing xaloyiq alolosidin.*

*Bu mehnatlar ichra chekib so‘zga til,
Zamondin kamo besh o‘tub iki yil.*

*Deyilgan zamonin hisob aylasa.
Yig‘ishtursa bo‘lmas bori olti oy.*

Yettinchidan, asarları matnida ramziy ma’noda so‘zni doimo farzand deb qadrlagan Navoiy, mazkur bobda ham so‘zni, xususan, “Xamsa”ni misli farzand deya sharaflaydi:

*Ki, so‘z zodayi tab‘-u farzand erur,
Chu farzand erur, jong‘a payvand erur.*

Sakkizinchidan, Jomiy uning xamsanavislar qatoridan joy olganini zavqi hol bilan goh duo, goh maqtov aytib e’zozlaganini “Qilib goh tahsin-u gohi duo” deb tasvirlaydi. O‘zining mammuniyat, shukronaga yo‘g‘rilgan yaxshi kayfiyatini shunday bayon qiladi:

*O‘zumdin hamul damki g‘oyib bo‘lub,
Manga jilvagar ko‘p g‘aroyib bo‘lub...*

*Ko‘rub o‘zni bir toza bo‘ston aro,
Qilib gasht bog‘-u guliston aro.*

*Manga “Xamsa” takmili bir yon edi,
Bu maqsud tahsili bir yon edi.*

*Ne til birla dey shukr Ma‘buduma
Ki, yetkurdy oxir bu maqsuduma.*

To‘qqizinchidan, muallif “Bu damkim, beribtur murodimni Haq”, deya boshqa dostonlari xotimasiga xos usulda ushbu doston xotimasini ham mug‘anniyga murojaat shaklida yakunlaydi va undan orom topishi uchun hazin kuy chalishini so‘raydi:

*Mug‘anniy, so‘zum tingla oxir gahi,
Hazin nag‘maye soz qil xirgahi.*

*Bir ohang ila aylagil romishi
Ki, yetgay manga bir dam oromishi.*

O‘ninchidan, “Xamsa”ni basmala bilan bosh-lagan Navoiy asar xotimasida o‘ziga murojaat qilib, Tangrining karami, marhamati, inoyati bilan oliy maqsadi ravo bo‘lganiga olam-olam shukronalar aytishini izhor qiladi:

*Navoiy, qilib Tengri koming ravo,
Sanga ro‘zi etti ajoyib navo.*

*Uzot Tengri shukri navosig‘a til,
Navo ortuq istar esang, shukr qil!*

Xulosa shuki, qalam ahli qatnashgan majlis-da munozaraga sabab bo‘lgan dur, xun va Navoiy qo‘llagan arzoniy so‘zlarini, birinchidan, badiiy so‘z qudrati va ta’siridan, ikkinchidan, Navoiy, Jomiy, Lutfiy, Boburning buyuk shaxsiyatidan, so‘zni topib qo‘llashdagi mahoratidan, uchinchidan, yaratgan tasviriy va obrazli ifodalardan, to‘rtinchidan, tarixiy, hayotiy voqealardan bizga xabar beradi. Beshinchidan esa “Saddi Iskandariy”ning mazkur bobi tasviri, talqini sabab, buyuk mutafakkir shoirning ijod ola-miga oshno qiladi.

Xazina

Shayboniyxon (1451–1510) hayotligi chog'ida yozilgan turli manbalarda, shu qatori Muhammad Solihning turkiy-chig'atoy tilidagi "Shaybonynomma", Fazlulloh bin Ro'zbexonning forsha "Mehmonnomayi Buxoro", Binoiyning forsha "Shaybonynomma", Hasanxoja Nisoriyning forsha "Muzakkiri ahbob" asarlarida Shayboniyxon davrida fan va madaniyat rivojlanganligi, u esa fan va madaniyatga homiylik qilgani, o'zi ham o'qimishli, o'tkir badiy va ijodiy did egasi bo'lganligi ko'rsatiladi. Shayboniyxon Buxoro va Samarcandni temuriylardan so'ng fan, madaniyat va san'at markazlari sifatida rivojlantirdi. Hirot va boshqa joylardagi olimlar, san'atkorlar, adlib-shoirlar Buxoro, Samarcandga olib keltilrildi. O'zi ham, asosan, urushlar bilan o'tgan 60 yillik umri davomida yuqori saviyali badiy asarlar yozib qoldirgan.

Keyingi davrlarda yaratilgan tazkiralarda ham Shayboniyxonning turkiy va forsiy tillardagi asarlar haqidagi ma'lumotlar uchraydi. XX asr boshlarida Zakiy Valididi To'g'on Shayboniyxonning Turkiyada saqlanayotgan devoni, devon mundarijasi, asarlarining ayrim badiiy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni maqola tarzida "Yangi Turkiston" jurnalida e'lon qiladi. 1948-yili chop etilgan "Navoiy zamonodoshlari" to'plamiga ham Shayboniyxon asarlar haqidagi ma'lumotlar kiritilgan. Shoir ijodini o'rganish bo'yicha Turkiyada ham muayyan ishlar amalga oshirildi. 1989-yili turkiyalish olimi Yaqub Qorasoy Shayboniyxon devoni bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini yozladи. U disertatsiya ishiga shoir devonining lotin yozuviga o'g'irilgan nusxasini ilova qildi. Yaqub Qorasoy keyinchalik Shayboniyxon devoniga oid barcha tadqiqotlarini monografiya tarzida e'lon qildi. Muhammad Shayboniyxonning Turkiyada saqlanayotgan va hoziriga qadar yagona nusxa sifatida qaralayotgan devonidan olingan fotonusxa Temur Xo'ja o'g'lining tashabbusi bilan O'zbekistonga ilk bor 1991-yili keltilrildi.

Tadqiqotlarda Muhammad Shayboniyxonning to'rt asari mayjud bo'lganligi aytildi.

Birinchisi, "Bahr ul-xudo" ("Hidayat dengiz") risolasi. Qo'lyozma nusxasi Londonning Britaniya muzeysida, Add 7914-yi, 16–22 b raqami bilan saqlanadi. 1508-yili yozilgan bu diniy-axloqiy mavzudagi masnaviy aruzning foilotun – foilotun – foilun – bahrda shabot bo'lib, o'g'li Temur sulton (1486–1514)ga tab yozgan pand-nasihatlardan iborat kitobdir. Demak, Shayboniyxon hayoti beto'xtov jang-ujadal ichida kechganiga qaramay katta ma'rifiy meroz goldirgan inson bo'lgan.

Ikkinchisi, fiqh ilmiga oid asar bo'lib, bu risola hozircha topilmagan. Turk olimi Ko'pruli o'zining Islom ensiklopediyasiga yozgan "Chig'atoy adabiyoti" nomli maqolasida Shayboniyning fiqh ilmiga oid bir risolasi mavjudligi va asarning o'z kutubxonasida saqlanayotganligi haqidagi xabar beradi. Boshqa ba'zi tadqiqotlarda ham bu risola xususida fikrlar mavjud, ammo uning aniq manzili haqidagi ma'lumot berilmagan. Shayboniyxonning shunday asari mavjudligi haqidagi Nisoriy "Muzakkiri ahbob" asarida ham ma'lumot beragan.

Uchinchisi, turkiy til qonun-qoidalari haqidagi asar. Bu haqda Hasanxoja Nisoriy Shayboniyxonning turkiy til qoidalari bag'ishlangan risolasi borligini eslatadi (Lekin bu risola hozircha topilib, tadqiq etilmagan). "Deydilarki, xon Hazora qal'sasi fathiga otlanganda, bir g'azal bitib, Hiri (Hirot) shayxulislomi va Qozi Ixtiyorga yuboribdi. Mana bu bir necha bayt o'sha g'azaldan bitilayot.

Bayt:

Mandan salom ul shayx-u Ixtiyorg'a,
Na Ixtiyorkim, ul chug'ul, rishvaxor'ga.

Qozi Ixtiyor turkiy tilni bilmas ekan, uning uchun "Turkiy til qonun-qoidalari" kitobini bitib yuboribdi".

To'rtinchasi asar – Shayboniyxon "Devon" idir. Muhammad Shayboniy lirik merozining majmuasi bo'lmish Shayboniy devoni (Istanbulda To'pqopni saroyi muzeysida saqlanadi) uning hayotlik chog'ida tartib qilina boshlanigan, biroq u halok bo'lganidan so'ng devon oxiriga yetka-zilmay qolgan.

Shoir devonida she'riyatning tavhid, na't, g'azal, ruboyi, tuyud, muammo, ta'rix kabi janrlarida qolganidan so'ng devon oxiriga yetka-zilmay qolgan.

Shayboh, Shaybek, Shohibek, Shohbaxton va hokazo. Aslida "Shabon" nomi turkiy "sho'bon" so'zidan olingan. Sho'bonni podshoh, el-yurtini boshqaruvchi inson sifatida qo'llash Navoiy asarlarida ham bor.

Adabiyotshunos olim Muso Tojiboyev Shayboniyxon devonida taxalluslarning qo'llanish holatini quyidagicha tahil qiladi: devondagi 266 ta she'rga Shabon, 65 tasiga Shabon, 7 tasiga Shohbaxton va 1 dona she'rga Shohbaxt deb taxallus qo'yilgan. Demak, shoiring devoni "Devoni Shayboniy" deb atalishi va taxallusi Shabon yoki Shayboniy tarzida qo'llanishi to'g'ridir. Ammo uning nomi an'anaga muvofigi, hukmdor sifatida "Muhammad Shayboniyxon" tarzida qo'llanilishi ommalashgan.

Muhammad Shayboniyxon saroy shoiri Muhammad Solihning "Shaybonynomma"sida ham yetuk shoir sifatida ta'riflangan:

*She'rni xo'b tanir zavq bila.
O'zi ham xo'b aytur shavq bila.
Turki abyoti erur sharbati nob,
Forsiy she'rlari ham serob.
Borchu serob-u salis-u dilkash,
Tab' ahlig'a jalis-u dilkash.*

Biroq Bobur "Boburnoma"da Shayboniyxon she'rlarini salbiy baho bergan: "Yana Qozi Ixtiyor bila Muhammad Mir Yusufg'akim, Hirining mashhur va xushtab' mullolarin edilar, bo'yufdu omilq tafsirdin sabag aytta, yana Mulla Sultan Ali Mashhadiv bila Behzod musavvirning tasvir va xattig'a qalam kiyurub, isloh qildi. Yana har kecha kunda bir bemaza bayt aytur edi va minbarda o'qutub, Chorsuda osturub, shahri eldin sila olur edi". Herman Vamberi "Buxori yoxud Mavarounnah tarixi" asarida Bobur mirzoning Shayboniyxonning shoirligi haqidagi fikrlariga shunday munosabat bildiradi: "Bobur Shayboniyning ma'nosiz va lazzatsiz she'rlari yozganini, ularni (Hirotda) minbardan o'qishga ami etganini istehzo bilan bayon qiladi. Aslida esa, bu urush odamni maorif va madaniyat haqidagi o'z davrining ruhidan to'la xabardor va zamonasidagi tengdosh shoirlarning aksariyatidan ortiq darajada qalam sohibi bo'lgan. Chunki uning she'rlari, dushmanlari fikridan teskarri o'laroq, buyuk bir iqtidor va go'zal tabiatiga molik ekani, u ham turkiy, ham forsiy, ham arabiylar tillardan asosli suratda voqif ekani ko'rsatmoqda". Shuningdek, Bobur farqli o'laroq, Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahbob"da shoirlar davrasida mushoiralar o'tkazadigan shoir hukmdorni ijobiy tavsiflagan: "Sohibqiroq xon (Shayboniyxon) ilm-u fazilatlardan xabardor, aniqrog'i, ularni to'la egallagan kishi edi. She'riyat sohasi va shoirlarga e'tiqod, e'tibori katta bo'lgan. Mudom olim-u fozzillarni o'ziga hamsutbil qilgan. Yaxshi she'rlari bor. Hazrati Najmuddin Kubro (Ungu tangri rahmati bo'lsin)ning vafoti ta'rinixi yaxshi aytgan.

Ta'rix:

Oning ta'rixidur shahi shu hado,
Yana bir alif birla bo'ur ado'.

Bu yerda shoir abjad usulida Najmuddin Kubroning hijriy 553-yilda tug'ilganligiga ishora qilgan.

Muhammad Shayboniy adabiy merozining asosiy qismini urush tafsilotlari, hayotiy muammolar, darveshilik kechimnalari o'z ichiga olgan diniy-tasavvufiy qarashlar asgas etgan g'azallar tashkil etadi. Shayboniyxon Sakkokiy, Atoiy, Navoiy an'anadagi turkiy-chig'atoy she'riyati an'analarini davom ettirdi. Uning ijodiyotiga xos xususiyat shundaki, Shayboniyxon she'rlarida davlatining dastlabki markazi Turkistonni, keyinchalik Mavarounnah va

"SHE'RNI XO'B TANIR ZAVQ BILA..."

Muhammad Shayboniyxonning nazmdagi faoliyatiga doir mulohazalar

Xuros shaharlari zo'r ehtirom bilan kuyladi. Buni biz shoiring quyidagi satralarda yaqqol ko'rami:

*Jannati ma'vo degan bog'i Samarcand emish,
Kavsari a'lo degan obi Samarcand emish.*

*Har nechakim o'tsalar Xuld tog'-toshini,
O'xshar anga dunyoda tog'i Samarcand emish.*

*Jilvayi hur-u qusur har nechakim qilsalar,
Nargisi mastonalarori bori Samarcand emish.*

*Bilkati qiladi Haq har yonda Jo'ybor,
To'rt orig'i har taraf ori Samarcand emish.*

*Har taraf bargzor bog'lari erdi behisht,
Necha desam vasfini koni Samarcand emish.*

*Suyidur obi hayot, eli turur jonfizo,
Nuch dori izlasang, qori Samarcand emish.*

*O'la yozib Balxda bad yilden istab,
Tegma Shayboniyga sen, shohi Samarcand emish.*

Shayboniyxon Samarcandni asarlarida jannatmakon deb kuylasa, Buxoroni Ka'ba darajasida ulug'laydi:

*Bir xayolim bor ko'ngulkim pir vafyi aylayin,
Ul Buxoro shahrida Ka'ba tavofin aylayin.*

Shayboniyxon boshqa shaharlarda yurgan kezlarda ham Samarcand, Buxoro, Turkistonni sog'indisi. U Movarounahrdek go'zal yurtini bizga Xudoning o'zi qimmatbaho sovg'a sifatida hadya qilgan deb aytadi:

*Avliyolar sarvari ul shohi Turkiston emish,
Yer yuzini mohi tutgan ul mohi Turkiston emish.
Yo'l yangilg'anlар'a dermen, boboling Sabron sari,
Qilma umrung emdi zoye, rohi Turkiston emish.*

Shayboniyxon tomonidan yozilgan tuyuqlar ham ja-rangli va betakror. Shoir bu janrda ham muvaffaqiyatlari ijod qiladi, so'zlardagi shakldoshlik asosida go'zal tuyuqlar yaratadi. Masalan, 1500-yili Samarcandni ilk bor egallash uchun yurish qilganida, qal'a tashqarisidan turib quyidagi tuyuqni yozgan edi:

*So'g'd ichida o'Itururlar yobular,
Yobularning mingan oti yobular:
Yebularning ilgidan el timnadi,
Yo bular bo'zin bu yerda yo bular.*

Birinchisi satrda kelgan "yobu" – o'zbek urug'laridan bori. Ikkinchisi satrda esa nasli uncha yaxshi bo'lmagan, asosan, qishloq xo'jaligida ishlatalgan bahaybat o'turi. To'rtinchisi qatorada shoir "yo bular" deb o'z askarlarini ko'rsatgan holda olmoshi qo'llamoqda.

Shayboniy tuyuqlaridan birida Xurosonga yurishi oldidan Amudaryoning chap sohilida yashovchi hazora nomi qavmgina tahdid qilib shunday misralarni keltiradi:

*Tangri inoyati bila qavmi hazorani,
Andog' etayki, tajriba bo'lsun hazorag'a.*

Bu satrlarning birinchisidagi "hazora" afg'on qabilalaridan birining nomi. Ikkinchisi "hazora" forsiyda "ming" so'zini ifodalagan.

*Anqoning yuzin ko'rarsiz kulmengiz –
Oq soqolidur yuzinda gulmengiz.
Ul qariligidin tili ko'p qisqadur,
Kim aning yuzin ko'rarsiz kulmengiz.*

Birinchisi misrada kulmangiz "oq yuz" ma'nosida. Meng – "xol" ma'nosida. Gulmengiz "gulyuzli" ma'nosini tashimoqda. So'nggi misrada kulmang "mazax qilmang" ma'nosida.

"Yoqadur" so'zining uch ma'nosi asosida yozilgan tuyuq:

*Necha dilbar jonima o't yoqadur,
Jonimung dardina darmon yoqadur.
Oq to'nung ko'rganda yonmoq xushturur,
Hoshiyasinda bilmadim ne yoqadur.*

Tuyuqning birinchisi misrasidagi yoqadur "o't yoqadi", "olov qalaydi", "jonimni yondiradi" ma'nolarida. Ikkinchisi "xush yoqadi", "zavqlantiradi" va so'nggi misradagi yoqadur "yoqa", "k'yimning yoqasi" ma'nosida.

Shayboniyxon boshqalarda uchramaydigandir tuyuqning olti misralik shaklini ham qo'llaydi. Mazkur she'rdi "kech" so'zi to'rt marta – birinchi, ikkinchi, to'rtinchisi va olintinci misralarda keltiriladi:

*Ey Binoyi, bu kitobing, bo'ldi kech,
(Kitobing kech yozildi, ish kech bitdi).*

*Bir seningtek qayda bo'lg'ay qo'li kech.
(Sen kabi kechikkian, sekin ish qiladigan odam qayda bor).*

*Bizga Urganch yurushida yaramay,
Sen farog'atda bo'lupsan kulli kech.
(Urush vaqt biyarmading, ya ni kitobini kech yozding).*

*Ketti o'sh moling, qaroqchi qo'lidin,
Ne turursem endi anda ko'lli kech.
(Qaroqchi molingin olib ketdi, endi sen ham uning ortidan ko'lni kechib o't).*

Shayboniyxon "Devon"i bir paytning o'zida tarixiy manba hamdir. XVI asr manbalarida uchramaydiganda ba'zi ma'lumotlar uning she'rlarida o'z ifodasini topgan. "Devon"da zikr etilishicha, "Samarcandni olganda base Ko'ksaroya to'g'ilib, valadimmi taxta mindurub, ul majlisda zebo sanamlarni keltirub, o'g'lum Muhammad Temur Bahodirni sandalda o'ttirub, bu g'azalni aytin:

*Ey manga sajdagohi ol qoshlaring mehrobidur,
Bu ko'ngil qushin tutarg'a shul ko'zing sayyodidur.*

*Novaking o'qlari jonom ko'z yoshimdin susadi,
Vah bag'ir qonidin ichkan kirpuing paykonidur.*

*G'uncha la'lin ko'rgali bu la'-u marjonlar to'kup,
Inglari olinda yo Rab ko'zlarim nammokidur.*

*Qezlob erdim ishqini eldin-u lekin naylayin,
Holatim Majnum kibi olamg'a yoyildi yana.*

*Firqat otidin yiqildim, yor keldi so'rg'oli,
Ey Shayboniy, yor dardingga davo qildi yana.*

Ichinda


*Yuzungni ko'rdum ul chortog ichinda,
Ochilmish toza gul yopraq ichinda.*

*Tabassum qilsang ul g'uncha labingdin,
Degaysen bol tomor qaymoq ichinda.*

*Necha ko'zloding, ey ra'no g'izolim,
Meni yondurmog'il avloq ichinda.*

*Karam qilg'il, kel emdi, ey azizim,
Uturg'il didayi mushtoq ichinda.*

*Jahonning ko'zi hargiz ko'mishi yo'q,
Na qildi lablaring so'rmog ichinda.*



*Kel ey soqiy, yukumbu bir ayoq tut,
Mango dilbar bila qishloq ichinda.*

*Mango javr aylading, ey bag'ri toshim,
Ko'ngulni soqlomay dil toq ichinda.*

Adabiy xazina

Shahrisabz-u Samarqand farzandi



Mirzo Umrboqiy haqida birinchi marta Qori Rahmatulloh Vozehning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob" (Mirzo Salimbek Salimi tomonidan 1914-yili chop etilgan) tazkirasida, keyinchalik "Taronahoyi Samarqand" (1965-yil) kitobida ma'lumotlar keltirilgan. Nosir Muhammadning "Nasaf va Kesh allomalari" (2006-yil) tazkirasida hamda Ne'mat Arslonning adib hayot yo'li, oilasi va qatag'onlar girdobida kechgan umri haqida hikoya qiluvchi "Iztirob farzandi" (2009-yil) nomli hujjatli qissasi Mirzo Umrboqiy hayotini o'rganishda dastlabki manbalar deyishimiz mumkin. Shuningdek, o'sha davr matbuoti sahifalarida ba'zi she'rlari chop etilgan.

Mirzo Umrboqiy yigirma yil umrguzaronlik qilgan Samarqand shahridagi Abullays Samarqandiy mahallasi-dagi fayzli hovlida bugungi kunda u kishining nabirasi Jaloliddin hoji yashab kelmoqda. Mirzo Umrboqiyning qo'lyozma kitoblari davr to'fonlari-yu qatag'on shamol-lariga qaramay uning suyukli farzandi Salohiddin maxsum tomonidan shu xonadonda saqlab kelingan. Bizga bobosining qo'lyozma asarlari(fotonusxasi)ni taqdirm etib bemin-nat yordam ko'rsatgani uchun bu sharif zotning nabirasi Jaloliddin hojiga chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

Mirzo Umrboqiy 1878-yili Shahrisabz shahrida tavalldud topgan. Otasi mulla Avazmurod tijorat ishlari bilan shug'ullanadi. U kishi ilmli-ma'naviyatl bo'lib, o'z davrining olim-ijodkorlari davrasida, ijodiy muloqotlarida ishtirok etar, ilm ahliga ixlosi baland edi. Zehni o'tkir va xotirasi kuchli Umrboqiyini ham tez-tez bunday yig'ilish-larga olib borardi. Mulla Avazmurod o'g'lining ta'limi bilan dastlab o'zi shug'ullanadi, keyinroq Shahrisabzning ko'zga ko'rigan kishilaridan mulla Safoyiya shogirdlikka beradi. Umrboqiy sho'x, lekin zehni o'tkir, bilimli va husnixati juda chiroqli yigit bo'lib tarbiya topadi. Chunki bolaligidan adabiy muhit vakillari suhbatlari va ilmiy-ijodiy muloqotlarini ko'rib, eshitib ulg'ayadi. Mumtoz she'riyatning zabardast namoyandalardan Hofiz, Bedil, Attor, Sa'diy, Navoiy, Fuzuliy ijodini chuqur o'rganadi. O'z davrining Mulla Qurbon Xiromiy, Farah Shahrisabziy, Abdulla Rahmon Gulshaniy, Fayzullaxo'ja Ravnaqiy singari ijod ahli davralarida mahoratini oshirib boradi.

Qobiliyatli, ilm-ma'rifatni va kitobni juda sevgan Umrboqiy tahsilni Buxoro madrasasida davom ettiradi. Madrasa tahsili tugagach uuga – Shahrisabzga qaytadi. Afsuski, bu orada otasi vafot etadi. Umrboqiy ota kasbi savdogarlik bilan birga o'zi yaxshi ko'rgan xattotlik bilan mutazam shug'ullanana boshlaydi. G'azallari bilan ustozlar nazariga tushib, ular e'tirofiga sazovor bo'lib boradi. Yosh iqtidor sohibining ijod namunalari 1914-yili Qori Rahmatulloh Vozehning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob" tazkirasiga kiritiladi. Bu uning shoir sifatida ustozlar va o'z davri ijodkorlari tomonidan e'tirof etilishi edi, albatta.

Husnixat sohibi bo'lgan Umrboqiy Oqsaroydag'i hokim mirzaxonasiga mirzolikka, keyinroq bosh mirzolikka tayinlanadi. Biroq ko'p vaqt o'tmay bu osuda hayotga barham beriladi. 1918-yil voqealari boshlanadi. Mirzo Umrboqiy yangi davlat boshqaruv idorasiga mas'ul kotib qilib xizmatga olinadi. Ikki yil shu lavozimda ishlagach, yo partiya safiga kirishi yoki ishdan ketishi talab qilinadi. Mirzo Umrboqiy keyingisini tanlaydi... Endi u sho'ro hukumatining "dushman"iga aylangan va mamlakatni egal-lab olgan sovet hukumati tazyiqidan qochib darbadarlik va xorlikda kun kechirishga majbur edi. Shahrisabzda vaziyat nihoyatda xavfli bo'lib qolgach, Buxoro madrasasida birga o'qigan saboqdosh do'stini qora qilib Shahrisabzdan piyoda, och-nahor holda Kattaqo'rg'ondagi Payshanba qishlog'iga boradi. Afsuski, unga do'stining Samarqanda ko'chib ketganini aytishadi. Umrboqiy o'zi va oilasi uchun o'zga shaharlardan panoh istab yurgan bu vaqtida uni qamoqqa olishga kelgan sho'ro hukumati Umrboqiyning to'ng'ich o'g'li 13 yoshli Salohiddinni o'zlarini bilan olib ketishadi. O'spirin bola otasining o'rnida 70 kun qamoqda saqlanadi. Ba'zi aqli raso kishilarning maslahati bilan yosh Salohiddin Toshkentga maktub yozadi va shundan keyin ozod qilinadi.

1929-yil Umrboqiy yashirin ravishda xat orqali oilasini Kattaqo'rg'on shahridagi ijara olgan uyiga chaqirtiradi. Lekin endigina jam bo'lgan oilaning oromi uzoqqa cho'zilmadi. Bir hafta ichida oilaning ikki farzandi to'qqiz yoshli Robiya va 11 yoshli Nizomiddin bezgak tufayli dunyodan ko'z yumadi. To'ng'ich farzand Salohiddin uzoq vaqt og'rib, qiyinchilik bilan oyoqqa turadi...

Bu kulfat-u hasratlar hali yuragidan ketmay, qattol hukumatning ta'qibi Kattaqo'rg'onga yetib boradi. Mirzo Umrboqiy yana darbadarlikda o'zi, tur mush o'rtog'i va endilikda yolg'iz farzandi Salohiddin bilan Chaqar qishlog'iga boradi. Qishloq imomi qarib qolgani sabab bilimdon va so'zamol Umrboqiyini o'z o'rniga qishloq masjidi imomligiga o'tkazadi. Oila yetti yil shu qishloqda tinchlik-xotirjamlikda yashaydi. Biroq ma'rifikat egalar, ziyolilar, taniqli shaxslar, mulla, imom va boy-badavlat kishilarini qamoqqa olish, nohaq qatl etish davri – 1937-yilgi ommaviy qatag'on boshlanadi: NKVD xodimlari Mirzo Umrboqiyini ham qo'liga kishan solib olib ketishadi. Ko'p o'tmay uni ozod qilishadi, lekin endi bu yerda qololmas edi. Samarqand shahriga yo'l oladi. Bu yerda bir necha yil ijarama-ijara ko'chib yurgach, nihoyat Faqih Abullays mahallasidan uy sotib olib, shu hovlida muqim yashay boshlaydi, oilasida yana farzand dunyoga keladi. Mirzo Umrboqiy tabiblik qiladi, kasal-bemorlarni davolaydi, o'qib, dam solib qo'yadi. Ammo qarib qolgan adibga nisbatan hukumat ta'qibi yillar mobaynida to'xtamadi. 1949-yilda chaquv sabab 70 yoshga yaqinlashib qolgan Umrboqiy xonadonida hukumat xodimlari yana tintuv o'tkazishadi. Kitoblari va qo'lyozmalarini yerto'lada – ko'mir ostida saqlagani uchun topisholmaydi. Shunday bo'lsa ham uni olib ketishadi va o'n besh kun saqlab, qamash uchun arzili ayb-sabab topisholmagach qo'yib yuborishadi.

Mirzo Umrboqiy 1957-yilning 23-sentabrida Samarqand shahrida vafot etadi. Qabri Shohi Zinda qabristonida.

Mirzo Umrboqiy adabiy merosi katta hajmdagi bitta kitobga jamlangan. Qo'lyozma manbaning bo'yi 25, eni 15, qalinligi 7 cm. Manbaning asosiy matnlardan tashqari to'rt tomonida 3 cm.dan bo'sh joy – hoshiya qoldirilgan. Matnlar silliq, yupqa Samarqand qog'ozida muallifning nihoyatda chiroqli xati bilan yozilgan. Xat turi nasta'liq. Kitob ustki jildida uchta muhr bor. Ushbu kitob mualliflar nazariga tushib, ular e'tirofiga sazovor bo'lib boradi.

* * *

Quyida zullisonayn ijodkor Mirzo Umrboqiy she'riy asarlariidan namunalar birinchi marta taqdim etilmoqda.

* * *

*Oshnolig' aylama zinhor san nokas bilan,
Vaqt yetsa zahr sochq'ay sanga ul misli yilon.*

*Har kishini asli zoti ahli davlatmand esa
Aylag'ay xayr ishina davlatini begumon.*

*Zoti past, ko'rmasa kishiga davlati bersa agar,
Qutrab itdek (mast) o'lub har kimg'a yetkurg'ay ziyon.*

*May ichib mast bo'lsa har kim saqlasa o'zni bo'lur,
Lek davlatmand nokas bo'lsa ul haddin yomon.*

*Mehnat ostig'a qolursen o'lgoningcha Boqiyo,
Gar yesang nokasni dasturxonidin bir parcha non.*

* * *

*Qosh-u ko'z-u lab-u la'l-u dahoning vasfin etayin,
Orazing xub bo'lg'onin sharhini devon etayin.*

*Sirri ishqing necha yil ko'ngluma pinhon erdi,
Emdi rasvolig'im el ichra seni finhon etayin.*

*Qaysi kun bo'lsa musharraf manga ishqing mayidin,
Mast-u madhush o'lubon ko'yungga javlon etayin.*

*Ko'rmasun xalq yuzungni ko'z o'yunda joy tut,
El ko'zindin ko'zum ichra seni finhon etayin.*

*Oshiqi murdalaringni suxan aylab turguz,
Xizr-u Iso ilkini sanga hayron etayin.*

ning o'zi tomonidan kitobat qilingan deyish mumkin, chunki davrining taniqli xattotlaridan bo'lgan Umrboqiyning o'zi kitobat qilish san'atidan xabardor bo'lgan, al-batta. Bundan tashqari, zamon o'ta xavfli bo'lgani sabab qo'lyozmalarini birovga ishonib topshirib kitobat qildiriishi ehtimoldan uzoq ko'rindi.

Qo'lyozma manba bir nechta mustaqil asarlarni o'z ichiga olgan bo'lib, bular lirik she'rlar – g'azal, marsiya, ta'rix, muxammas, ruboilyar, shuningdek, tariqatga, tabatga, musiqaga oid maxsus asarlardan iborat.

Mirzo Umrboqiy Shahrisabzda yashagan yillardanoq o'z davri ilmiy-ijodiy muhitining ko'zga ko'rigan va killaridan bo'lgan. Bundan tashqari, Shahrisabz xalqi orasida obro'li, yurtparvar-xalqparvar shaxs bo'lib tanilgan edi. Adibning Samarqand tuprog'ida o'tgan umri ham garchi quvg'in va muholtlik, tahlika va xavotir ostida kechgan bo'lsa-da, ijod borasida samarali bo'lgan. Aytish mumkinki, adib ilmiy-adabiy merosi mintaqadagi ikki qaynoq va bir-biriga uyg'un adabiy markazlar – Shahrisabz va Samarqand adabiy muhiti an'analarini o'zida mujassam etgan ijod namunalaridir. Shu sabab garchi Mirzo Umrboqiy umrining oxirigacha o'z yurti Shahrisabzni qo'msab-sog'inib yashagan bo'lsa-da, Samarqand tuprog'ida o'tgan 20-21 yillik hayoti ham bu yerdagidagi abadiyot vakillari, ilmiy-ijodiy muhit unga begona emas edi. Samarqandlik taniqli ijodkorlar Orif Gulxaniy, Javdat, Tamhid, Jome', Sadriddin Ayniy, Shahrisabzdan Fayzulloxo'ja-Ravnaqiy, Abdulla Gulshaniy, Ismoilxon, Najmuddinxon, Abbasxon va boshqa ijodkorlar bu xonadonga tez-tez tashrif buyurishar, o'zaro ijodiy suhbatlar bo'lib o'tardi.

Mirzo Umrboqiy badiiy ijod namunalarini "Boqiy" taxallusi bilan qog'ozga tushirgan. Boqiy qo'lyozmalarini bilan tanishish jarayonida, adibning adabiy-ilmiy, badiiy ijodi ancha sermabsul ekaniga guvoh bo'ldik. Barkamol shaxs, yirik olim va xushxat xattot Mirzo Umrboqiy ijodi XX asr o'zbek abadiyotini o'ziga xos qimmatli asarlari bilan boyitdi, 70–75 yillik sho'rolar hukumati davrida o'zbek mumtoz abadiyoti an'analar bardavomligini ta'minlashda muhim halqa bo'lib xizmat qildi. Boqiy adabiy merosini joriy yozuvga o'girish, jamoatchilik hukmiga havola etish hamda ilmiy, badiiy-estetik, tarixiy qimmatini aniqlash, davr abadiyoti rivojida tutgan o'rni va ahamiyatini belgilash navbatdagi vazifalardandir.

Zebiniso XURRAMOVA,
SamDCHTI "Qiyosiy adabiyotshunoslik"
kafedrasi o'qituvchisi, dotsent

*Boqiy, bu zor taning ichra yarim joning bor,
Himmat aylab oni ham sadqayi jonon etayin.*

* * *

*Er-u xotun o'rtasig'a janjal o'lsa nogahon,
Kirmag'il orasig'a gar aqling o'lsa, ey falon.*

*Er-u xotun gar urushsa kunduzi bir-bir bilan,
Kechasi bo'lg'onda topushg'ay ikisi begumon.*

*Ikkisi bir yastuq uzra bosh qo'yub xandon o'lub,
Bir-biri-la o'ynoshib hojatlarin qilg'ay ravon.*

*Bo'lsa tun hijobi ko'rpa ostida qolmas asar,
Shul jihatdin kulg'ay ostona alarg'a har zamон.*

*Ahmoq odam or etib xotun tarafdiri bo'lub,
Xalq ichinda o'zni kulgu birla rasvo qilg'ay on.*

*Yozdim ushbu so'zni man hargiz so'zum yolg'oni yo'q,
Er-u xotun janjolin yuz-yuzcha qildim imtihon.*

* * *

*Har kas ki g'arib shud ba mulki digare,
Az ahli muqim nest uro nazare,
Garchand ki on g'arib shahzoda buvad,
Dar chashmi muqim az gado ham batare.*

* * *

*Afsus, hazor hayf, kor az dast raft,
Oroyishe ayshi ruzgor az dast raft,
Sad mehnat-u g'am ba ahli islom rasid,
Amniyyati mulki e'tibor az dast raft.*

So'z ko'rki

TILSIM QA'RIDAQI OVOZ

She'r va she'riyat haqida, uning abadiyatga daxldor ekanligi to'g'risida, chinakam she'rning umri uni yaratgan iste'dodli shoir umridan ming bora uzun ekanligi mavzusida juda ko'p iqtiboslar borki, buyuk yapon adibi Ryunoske Akutagavaning mashhur "Inson umri Bodlerning bir satriga arzimaydi" degan hukmi-xulosasi barcha zamonlar uchun o'z horini yo'qotmagan go'zal bir talqin degan xulosaga kelasan. Men bu fikrning to'g'riligiga Nazar Shukurning she'rlarini o'qib turib, yana bir bor ishondim.

Nazar Shukur olamni she'rning benazir nigohi bilan idrok qilgan. Qay bir vaqt bo'lmasin, uning she'rlarini nogahon yoki ataylab o'qigan har qanday so'z muxlisini ana shu benazirlik vodiysiga boshlab ketadi betakror Shoir.

Uning she'rlarini o'qir ekanman, daf'atan chinakam insoniy iztirob, olam va odam dardlariga birlashib ketgan ulug' bir hamdardlik har bir satrida lovullab turganini his etdim.

She'rdan she'rga o'tganim sari yana bir fikr xayolimni chulg'ay boshladi: yashalishi lozim bo'lgan va yashab o'tilgan umr bilan ana shu yashalgan vaqt davomida yaratilgan she'r umrini solishtirsangiz lahzalar, daqiqalar, kunlar, oyalar va yillar, ehtimol asrlar ham to'xtab qolgandek bo'ladi.

Nazar Shukur she'rlari vaqtini to'xtatgan, negaki ular bugun, ayni shu kunlarda yozilgandek haroratli, tilsimli, tug'yonli, dardnok, taskinbaxsh, hamdard va hayotbaxsh tuyg'ularning tirik timso ли bo'lib ko'nglingizga ko'chadi va ko'chaveradi, ko'chaveradi...

Ehtimol, iste'dodli shoirlarning bu olamda erishgan bir hovuchgina baxt va saodati ham shundadir.

*Oy kuladi beun, bejarang,
Yulduzlarda pok tortinchoqlik.
Tun qo'ynida uxlar chiroy, rang.
Tun qo'ynida uxlar uzoqlik.*

*G'arq tilsimlar qa'rige jahon,
Eshitilmas shovqinlar sasi.
Tashlanadi menga nogahon,
Sukunatning vahshiy sharpasi!*

Olam va inson tuyg'ulari yaxlitligini "tun, chiroy, rang, tilsim, shovqin va sukunat" so'zlarini



orqali sakkiz misrada bir fikr ostida jamlab, betakror manzara yaratish shoir iste'dodining namoyon bo'lishidir.

Shoirning yana bir sakkizligi dunyo yaralgandan beri insoniy munosabatlarning eng og'ir, eng jarohatli, eng iztirobli kechmishi sanalgan xiyonat haqida.

*To 'lib yig'lar oqshom bechora,
Ko 'tarolmay quvg'in boshini.
U gullarga deydi yolvora:
"Bilsin, quyosh to'kkан yoshimni"!*

*Sog 'ingandan jiqlqa ho 'lmiz deb,
Gullar har tong so 'zga ochar lab.
Sho'rlik tunning yoshlari bilan
Ishontirar quyoshni aldab!*

Aldangan quyosh – aldangan inson dil iztirobining shunchaki timsoli desak, biz o'zimizni ham biroz aldagan bo'lamiz.

Bu yerda eng asosiy gap telbadil oqshom va makkora tong gullarining beshafqat va ayanchli taqdiri abadiyligi, takroriyligi va tunganmasligida. Olam va odam qismati shunday evrilishlar chan galzoridan o'tadi, degan xulosaga kelishimizda.

Shoirning hayotni bor bo'yi-basti, kami-ko'sti, to'kilgan-to'kilgan ohor-u soddaligi va to'porili, rosti-yolg'oni bilan ko'rsatgan, yo'q, ko'rsatmagan, balki so'zning irfoniy quadrati bilan san'at hodisasiga aylantirgan shunday she'rlari borki, bu she'rlar o'zining adabiy-badiiy quadrati bilan abadiyatga daxlordir.

Adibning "Noroy momo falsafasi", "Mashrab va haqiqat", "Shukur Qurbon", "Mirkarim Osim", "Oqsoqol nabirasiga aytgani", "Nishon akaning etigi", "Xonsuluv xolaning qo'shig'i", "Onanga maktub", "Otamning xati" she'rlari chinakam iste'dod va ilhom mevasi bo'lib dunyoga kel ganligi, ularda qalamga olingen mavzu va uning teran mohiyati, bu iztirobli o'ylar tasvirining nazar shukurona she'riy talqini milliy adabiyotimiz sahifalarida hech qachon eskirmaydigan adabiy hodisadir.

*Seni durust derdim o'g'illar ichra,
Kamtar, aqlli deb qishloq maqtardi.
Ularning aytgani kelmadi sira,
O'g'lim, sen olisdan baxtni axtarding.*

*Qishloqdan kechdingmi to'kmay deb terni,
Suv urgan to'g'oning eslab chimlarin?
Seni zab talantli va esli derdi,
Aldagan ekanda muallimlaring?!*

*Tut, tollar ekkaman, soyasida, kel,
Yozib yet she'ringni, mol boqma, mayli.
Seni to'y-azada ko'rib tursin el,
Nahotki qishloqda ilhom kelmaydi?!*

*Xo'p, sog' bo'l, aytdimda ko'nglimda ne bor,
Darvoqe, kiyim-bosh oldingmi qishga?
Ne derdim, gap uqmay qo'l uring takror,
Ota-bobolaring qilmagan ishga...*



Bu she'r "Otamning xati" deb nomlanadi, u o'tgan asrda, aniqrog'i 1982-yili yozilgan. Lekin undagi ichki insoniy gina harorati bugun aytlayotgandek, undagi samimiyat va nekbinlik bugunning gapidek, undagi so'z zalvori va betakrorligi bugun yozilgandek taassurot uyg'otadi.

Nazar Shukur qaysi mavzuda she'r yozmasin, she'riyatda o'zi zabit etgan cho'qqidan bir nav bo'lsin pastga tushmagan. Bu shoir iste'dodi va iqtidori botiniy quadrating hech kim inkor qilol maydigan haqiqatidir. Nazar Shukur she'riyatida vaqt va zamonlarning dolg'ali chig'iriqlaridan omon olib o'tadigan bir mavzu borki, bu muhabbat mavzusidir. Nazar Shukurning inson qalbi va undagi ming bir alvon tuyg'ularning ming bir tovlanishlarini azob va iztirob, umid va ishonch, o'tinch va istig'for mulki aro olib o'tadigan she'rlari – sevgan va sevilgan yuraklarning mangu porloq mayog'i bo'lib qoladi.

*Bir tosh ko'rsang yo'l o'rtasida
Tepib o'tma, yor, qilib hazar.
Seni kutib oyoq ostida,
Yotar toshga aylanib Nazar.*

*Topmas edi she'rlarim sayqal,
Yor, bermasang ishqing bilan zeb.
Senga tiklab so'zlardan haykal,
Imzo chekdim "Nazar Shukur" deb.*

*Seni ko'zday asramoq uchun,
Jismi bilan intilib nurga,
Girdingdag'i narsalar bugun
Aylangandir Nazar Shukurga!*

Nazar Shukur she'riyati – o'zi bir paytlar bashorat etgandek tilsim qa'ridagi unutish va unutilishdan xoli – bezavol ovozdir.

Zero, ko'ngil bilan yashaydigan, ko'ngil tuyg'ularini muqaddas va mukarram biladigan ko'ngil sohiblari bor ekan, Nazar Shukur she'riyati ham yashashda davom etadi.

Bir she'r tahlili

Aksariyat shoirlar orzumandroq bo'lishadi, "O'z she'rim bilan kimlarningdir dardiga darmon bo'laman, dunyoning bir kemtigini butlayman" deb o'yashadi. Biroq zamona ravishi hamisha ham shoir orzusi bilan rost kelavermaydi. Shunday bo'lsa-da, shoir tinchimaydi, u bir kun kelib olam jannat bo'lishiga ishonib, ijod qilaveradi. Tabiiyki, bu yo'lda turli to'siqlarga uchraydi, turfa jabr-u zulmlarni tortadi, ammo u shunga ruhan tayyor bo'lib yashaydi.

Ushbu maqlolada ana shunday orzumandlik ruhi bilan sug'orilgan, kajraftor zamon zulmlaridan zada bo'lishi oqibatida tug'ilgan bir she'r haqida fikr yuritamiz.

*Nechun meni badbinlarga qo'shib qo'yding,
Bir argon-u, bir chilvirga eshib qo'yding?
Nechun, axir, tuban muhit farzandiman,
Yuholardek nafsimga men ham bandiman?
Nechun, axir, ayro tushib imon bilan,
Sulh tuzay xudobezor shayton bilan?
Nechun sobit yurib bo'lmash Haq yo'lidan,
Nechun, axir, chiqib bo'lmash kufr cho'lidan?
Nechun, axir, millat borki, illati ko'p,
Shaytonsifat kaslar kezar bisyor, to'p-to'p?
Pokdomonlar urug'imi yo'anqoning,
Ochilmasmi eshigi keng xonaqoning?
Nechun qalbim anglaguvchi biron jon yo'q,
Mashaqqatsiz osh ne, hatto to'g'ram non yo'q?
Nechun, axir, yaxshilarga kun yo'q sira,
Ko'zi ochiq borki, qalbi ko'r, basir-a?
Tozaman deb qay til bilan, axir, aytay,
Tubanlikdan bulg'anmasdan qandoq o'tay?
Bedavolar tilimni ham zahar qildi,
Qilmishlarin kun-tun, shom-u sahar qildi.
Bular otash yuragimga soldilar chang,
Va irodam bilan timmay qildilar jang.
Majruh etib hali murg'ak yoshimdan-ey,
Ne bir kunlar o'tdi sho'rlik boshimdan-ey!
Bu ne holki, do'st-u g'anim qonim ichar,
Qonim ichib, o'lmay turib, kafan bichar:
"Ber-ber!" deydi bular bari to'tiqushday,
Shundanmikan, umrim o'tar mudhish tushday.
Jonimni hech o'ylaguvchi jonajon yo'q,
Rangi-ro'yim aftodahol, tomchi qon yo'q.
Biroq olg'ir kaslar yurar kekirib bad,
Kim surbet-u haromxo'rdir - yordir omad.
Rishva bilan, pora bilan hali-hamon
Keng dunyoning teng yarmini olmoq oson.
Garchi ko'plar Xudo deydi yonib tilda,
Xudo bilar, ne muddao pinhon dilda.
Garchi mo'min-musulmonlik bizga meros,
Atvorumiz g'ayridinga kelganday mos.
Ezgulikka tashna garchi jumla jahon,
Yovuzlikning dasti daroz, daroz hamon.
Garchi jumla odamlarning niyati pok,
Topiladi tubanlikdan qaytmash bebob.
Bandalarga havas emas, hasad kuchli,
Ruhoniyat qayda, badnafs jasad kuchli.
Mol-dunyo deb qay birlari dindan chiqar,
Qasdlashsa bas, darhol qilich qindan chiqar.
Odam ko'pdir, odamiylik ozdan ham oz,
Shang'ilikda er-u xotin birdek shovvoz.
Qiluvchi ko'p taportmasdan gunoh ishni,
"Yuzko'rmas" dir aksariyat qo'ni-qo'shni.
Qolishmaydi do'zaxdan ham arosatdan,
Bir dunyoki, qisgan Xudo farosatdan.
Nechun bunday dunyolarga esh qilding, ayt,
Qabohat-u razolatni pesh qilding, ayt?!*

Garchi dilda muhabbatim, mehrim bisyor;
Pok ishqimga munosib yor, ayt, qayda bor?!

Hukmingda gar zamin, yetti qavat osmon,
Kelib ketdi ming payg'ambar, ming bir Usmon;
Garchi bisyor kalomlaring turfa tilda,
Garchi Senga itoat bor turfa elda;
Garchi talay odamiylik dasturlari,
Hali hamon qog'ozadir ular bari.
Hali hanuz kamolotdan berimiz biz,
Noqobilimiz, Ona zamin sho'rimiz biz.
Bir tomonda bahor bo'lsa, bir yonda qish,

MUNOJOT

yoxud orzumand ko'ngil nolasi

*Bir tomonda qarg'ish bo'lsa, bir yon olqish.
Och-yupun el hali hanuz bunda bisyor,
Boylarni ham deyolmasman shod, baxtiyor.
Visolingga tashna-yu zor odamizod.
Tangrim, o'zing qo'lla uni, ko'rsat imdod.
Sharq-u G'arbg'a ayirmagin, oq-qoraga,
Sovuqchilik solmagaysan hech oraga.
Nasroniyimi, musulmonmi, butparastmi,
Tog'-u toshda adashgan bir o'tparastmi, –
Yuraklarga, Olloh, avval o'z ishqing sol,
Qo'lingga ol uluslarni, qo'lingga ol.
Toki bari erta-yu kech Xudo degay,
Haq yo'ida jism-u jonim fido degay.
Xudo degan bandalaring kam bo'lmadi,
Xudo degan boshlar aslo xam bo'lmadi.
Birlashtirsa el-yurtlarni ulug' noming,
Shod, baxtiyor yasharmidi har g'uloming.
Bizlar uchun, mayli, kamol armon bo'lgay,
Biroq umid dardimizga darmon bo'lgay,
Ezgu umid dardimizga darmon bo'lgay.*

1994-yilda bitilgan ushbu "Munojot" she'ri shoir, tarjimon va adabiyotshunos Abduhamid Parda qalamiga mansub hajman yirik she'r. Misralar oxiridagi qator so'roq belgilarini ko'rib, xayolga cho'masiz: inson dunyoga nima uchun keladi? Poklanish uchun, ayni paytda dunyoni ham poklash uchun. Binobarin, dunyoni kamolot sari intilayotgan inson qiyofasida tasavvur qilish mumkin. Tarixiy taraqqiyotga nazar soladigan bo'lsak, inson har jihatdan yuksalib borayotganini ko'ramiz. Faylasuf Erix Frommning ta'kidlashicha, "odamzod aqlan yigirma birinchi asrda yashayotganiga qaramasdan u qalban hamon tosh asrida qolmoqda". Shu o'rinda, Abdulla Oripov "Yillar armoni" she'rida armon bilan yozadi:

*Mukammal ko'rmoqchi bo'ldik dunyoni,
Yetuk bo'lolmadik o'zimiz biroq.
O, yillar armoni, yillar armoni,
Armon ko'rmadim men sizdan buyukroq.*

Yaxshi she'r muhabbatdan tug'iladi, deydilar. Yaxshi she'r teran mulohaza qilingan, odamning yuragini o'rtaydigan armonidan ham tug'iladi. Aniqrog'i, chinakam she'r yozilmaydi, u sodir bo'ladi. Xuddi biron ijtimoiy-madaniy hodisa kabi. Haqiqiy shoir ham onasining rahmidan shoir bo'lib tushadi. "Farhod va Shirin"dagi savol-javob esingizga tushgandir:

*Dedi: qay chog'din o'lding ishq aro mast?
Dedi: ruh ermas erdi tanga payvast.*

Demak, shoirning ruhi azal dargohida nurga chayilgan bo'ladi, shu bois ham u umr bo'yi zulmat bilan olishib o'tadi. Abduhamid Pardaning "Munojot" she'rinis falsafiy-publisistik mavzuning qamrovord ekanligi nuqtayi nazaridan lirik doston deyish mumkin. Bu she'r Abdulla Oripovning "Sarob" manzumasi bilan hamohang. "Sarob" va "Munojot" she'rlarining mohiyatan uyg'unligi ularning she'riy o'lebovi o'zaro yaqin: "Sarob" o'n uch bo'g'inli, "Munojot" o'n ikki bo'g'inli manzuma. Har ikki manzumada zamondan norozilik kayfiyati ustun. Bu shunchaki norozilik emas, balki ezgulikka yo'g'rilgan isyon, ijtimoiy adolatlari tuzum qaror topishi, insoniyat barkamolligi sog'inchi hisoblanadi.

"Munojot" lirik dostonini nainki Tangri taologa murojaat, balki o'ziga xos bahs-u munozara deya talqin qilish mumkin. Manzumaning dastlabki satrлarida shoir go'yo shaxsiy hayoti haqida fikr yuritayotgandek tuyuladi:

*Nechun meni badbinlarga qo'shib qo'yding,
Bir argon-u bir chilvirga eshib qo'yding?
Nechun axir tuban muhit farzandiman,
Yuholardek nafsimga men ham bandiman?
Nechun, axir, ayro tushib imon bilan,
Sulh tuzay xudobezor shayton bilan?*

Bir qarashda anchayin shakkokday tuyuladigan fikrlar aslida shoirning chinakam mo'minligi nishonasidir. U o'zini yo'qdan bor etgan ulug' Yaratuvchiga ishonadi, uning bemisl qudrati va sarhadsiz mehr-u muhabbat ummoni-

dan umidvor bo'ladi. Tomchida dengiz, zarrada quyosh jo bo'lgani kabi shoirning hayotiga adolatsiz ijtimoiy muhit sababchi. Shoir "imon-u e'tiqoddan ayro tushish, xudo-bezor shaytoni zamон" bilan suhl tuzishni istamaydi.

Hadisi sharifda: "Mo'min kishi o'z yaratuvchisi bo'lmish Ollohnning nuri bilan qaraydi", deyiladi. A.Pardaning lirik qahramoni ham hamroh-u hamkorlariga, zamona tartib-qoidalari "Ollohnning nuri bilan qaraydi", imon-u adolat mezoni bilan yondashadi. Axloqqa zid xatti-harakatlar, ijtimoiy munosabatlarni qabul qilolmaydi. Shoir tuban muhit farzandi bo'lgani bois "Yuholardek nafsimga men ham bandiman" deya o'zi ham muayyan qusurlardan xoli emasligidan iztirobga tushadi:

*Tozaman deb qay til bilan axir aytay,
Tubanlikdan bulg'anmasdan qandoq o'tay?
Bedavolar tilimni ham zahar qildi,
Qilmishlarin kun-tun, shom-u sahar qildi.
Bular otash yuragimga soldilar chang,
Va irodam bilan tengsiz qildilar jang.*

Mashhur nemis shoiri I.Gyote inson hayot uchun har kuni uzuksiz kurashishi kerakligini ta'kidlagan. Ijd-korning lirik qahramoni ham hayot, adolat uchun muttasil kurashadigan faol inson ekani ma'lum. Garchi bayahbat ijtimoiy jamiyat bilan olishish unga oson kechmasa ham, o'z e'tiqodi yo'lda sobitqadam ekani, adolatsizliklardan darg'azab holda shoirona zaharli zabon bilan o'z kechin-malarini bayon qilishga majbur bo'lganini e'tirof etadi.

Shoiring lirik qahramoni zamondoshlarining munofiqligini aslo qabul qila olmaydi:

*Garchi ko'plar Xudo deydi yonib tilda,
Xudo bilar, ne muddao pinhon dilda.
Garchi mo'min-musulmonlik bizga meros,
Atvorumiz g'ayridinga aksari mos.*

Shekspir Daniyani, ya'ni dunyoni zindon deb atagan. Abdulla Oripov "Munojot"ni tinglab" she'rida bu ta'rifni yana ham kuchaytirib, dunyoni jallod deb ataydi. Abduhamid Parda esa sakta ijtimoiy muhitni do'zax-u arosatga mengzaydi:

*Qolishmaydi do'zaxdan ham arosatdan,
Bir dunyoki, qisgan Xudo farosatdan.*

Shoир mazkur she'r yaratilgan davri nima uchun do'zaxdan ham, arosatdan ham qolishmaydigan o'ta murakkab davr deb ta'kidlamoqda? Abdulla Oripov "Onajonim she'riyat" she'rida shunday xitob qiladi:

*Har qismatga har kimning
Davroni sabab bo'lgay,
She'oh cheksa shoirning
Armoni sabab bo'lgay...*

Tarixga nazar solsak, salmoqli she'riy asarlar dolg'ali ijtimoiy-siyosiy davrlarda yaratilgani kuzatiladi. 1917-yil Oktabr to'ntarishidan keyingi davrda Cho'lpionning "Xalq", "Ko'ngil" singari she'rlari, 1960-yillardagi o'ziga xos ilqlik, tarixiy evrilish davrida Abdulla Oripovning "Bahor", "Sarob" ("O'ylarim") kabi lirik poemalari, niyoyat 1990-yillardagi arosat davrida Abdurahim Pardaning "Munojot" manzumasi ruhidagi asarlar yaratilgan.

1985-yili oshkorlik va qayta qurish siyosati boshlanishi oqibatida ro'y bergan "qadriyatlar tizimining dinamik stereotipi sinishi" "Munojot" manzumasi yaratilishi uchun tarixiy zamin bo'lgan. Binobarin, "Munojot" manzumasi-dagi shoirning ko'ngil kechinmalarini ijtimoiy muammo-lar sifatida talqin qilish zarur.

*...Nechun bunday dunyolarga esh qilding, ayt,
Qabohat-u razolatni pesh qilding, ayt?!*

Bu bayt bilan manzumaning yana bir jahoni y muamolarni qamrab olgan navbatdagi qismi boshlanadi. Abdulla Oripov "Sarob" lirik poemasida dunyoviy muamolarni ham tilga olib, ularni hal qilish zarurligini ta'kidlaydi:

*Qaylardadir hamon kezar zulmat timsoli,
Qaylardadir hamon tinmay ogmoqda-ku qon.
Ko'zlarimga goh ko'rinar telba misoli
Men bir vaqtlar sajda qilgan hazrati inson.
Qaylardadir fisq-u fasod, hasad, xusumat,
Insoniyat farzandlarin tortmoqda dorga.
Gar bor bo 'Isang javob ber, ey ilohiy qudrat,
Nahot go'dak ishonchini yozsibas qorga?!*

Abduhamid Parda ham manzumasida bevosita dunyoviy muammolarini tilga oladi. Dunyoda tartib o'rnatish, odamzodni to'g'ri yo'lga da'vat qilish uchun Parvardigori olam minglab payg' ambarlar-u aziz-avliyolarni yuborganiga ishora qiladi. "Odamiylik dasturlari", xususan, Qur'oni karim kabi muqaddas kitoblar samovotdan inganini ta'kidlaydi. Biroq:

*Garchi bisyor kamolmlaring turfa tilda,
Garchi Senga itoat bor turfa elda;
Garchi bisyor odamiylik dasturlari,
Hali-hamon qog'ozdadir ular bari.*

Atoqli gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadze insoniyat baxtiyor hayot kechirishining dasturi yaratilgan, faqat unga amal qilish qoldi, deb bejiz ta'kidlamagan. Holbuki, odamzod mana shu dasturga monand yashashni kechiktirmoqda.

*Hali-hanuz kamolotdan berimiz biz,
Noqobiliz, Ona zamin sho'rimiz biz.*

Chingiz Aytmatov odamzodning hozirgi holatidan norozi ekanini oshkora aytgan: "Men insoniyat hozir o'smir yoshda degan bo'lardim. Nima uchun? Hozir insoniyat fe'l-atvorida namoyon bo'layotgan, xususan, urush-urush o'ynashga qiziqish, shuningdek, "g'olib" bo'lish mumkinligiga ishonch hamda o'zing shuhrat-parastligini shu bilan qondirish xususiyati kabi ayrim belgililar meni shunga ishortiradi. Menimcha, bu fan-teknika inqilobi davridagi muqarrar atavizm". Abdulla Oripovning bir she'ridagi "O'tdi insoniyat murg'ak davrdan, Endi u shubhagar bir yoshga yetdi" satrлari ham Aytmatov fikriga hamohangdir. Abduhamid Parda manzumasida odamzodni to'g'ri yo'lga boshlashni, uni halokat chohidan qutqarishni Tangri taoladan yolvoradi:

*Visolingga tashna-yu zor odamizod,
Tangrim, o'zing qo'lla uni, ko'rsat imod.
Sharq-u G'arba ayirmagin, oq-qoraga,
Sovuqchilik solmagaysan hech oraga.
Nasroniyimi, musulmonmi, butparastmi,
Tog'-u toshda adashgan bir o'tparastmi, -
Yuraklarga, Olloh, avval o'z ishqing sol,
Qo'lingga ol uluslarni, qo'lingga ol.
Toki bari erta-yu kech Xudo degay,
Haq yo'lida jism-u jonim fido degay.
Xudo degan axir hanuz kam bo'lmadi,
Xudo degan boshlar aslo xam bo'lmadi.
Birlashtirsa el-yurtlarni ulug' noming,
Shod, baxtiyor yasharmidi har g'uloming.*

Tashqi ko'rinishidan bu fikrlar muqaddas bitikdag'i "Biz odam bolalarini bir-birlarini tanisin, bir-biriga intilsin, turfa rang va tilda yaratdik" mazmunidagi ta'kidga zid kelayotganday go'yo. Biroq shoir – ko'ngil odami, u dunyo qanday yaratilganligi va olamning cheksiz donishmandligini yaxshi biladi, shunga qaramay "Agar ana shu tafovutlar bo'lmaganda edi..." qabilida orzu qiladi. Aynan shu uchun ham u shoir-da! Orzumand qalb sohibi!

Qadimiy rivoyatlarda olis o'tmishda odamzod yagona tilda so'zlashgani aytildi. Bir zamonlar jumla bani-bashar yagona dingga e'tiqod qilgan bo'lsa, ajab emas. Bir ota-onadan tarqalgan insoniyat toki yagona oftob ostida, yagona zamin ustida yashar ekan, bir kuni bir tan-u bir jon bo'lib, bir yoqadan bosh chiqarishi, tug'ishgan birodarlar kabi bahamijihat hayot kechirishi, zaminda jannatdagi kabi yashash sharoitlari yaratishi, o'zini ham komil, dunyonni ham barkamol qilishi aniq. Abduhamid Parda o'z manzumasida ayni mana shu shoirona orzu demagan bo'lardim. Shoiring fikriga qo'shilgan holda kelajakka, albatta, umid bilan qaraymiz:

*Bizlar uchun, mayli, kamol armon bo'lgay,
Biroq umid dardimizga darmon bo'lgay...*

Abdunabi HAMRO,
shoir va adib,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi

TAXTDAN VOZ KECHIB HAJGA KETGA AKA-UKA IMOMQULIXON VA NADRMUHAMMADXON ASHTARXONIYLAR QISMATI

1611-yildan 1642-yilgacha Buxoro xonligida hukmronlik qilgan ashtarxoniy Imomqulixon ibn Dinmuhammadxon(1589–1650) ham ijod qilgan. Manbalarga qaraganda, Mutribiy Samarcandiy Imomqulixon huzurida madaniyat arbobi va shoir sifatida katta obro'ga ega bo'lgan. Hukmdorning adabiy yig'ilishlarida ishtirot etgan. Herman Vamberining yozishicha, "U ulamo va adiblar hamda shoirlar bilan suhbatdan lazzat topib, ko'p vaqtini hukmdor libosini yechib, darveshlik qabosini kiyishga sarflar, har narsani o'zi darhol bilishi uchun vaziri Nadr devonbegi va yaqin odami Abdulvose' bilan shahar aylanar edi. Imomqulixon nochorlarga yordam berdi. Arz bilan kelganlarni eshitdi. Uning zamonida na kambag'al, na bechora qolgandi. O'z davrining ulamosidan eng katta Mullo Yusuf Qorabog'iy bilan Mulla Nahliyini ayricha taqdirlar va hurmat qilardi. Muhammad Yusuf Munshiy Nahliy taxallusi bilan ijod etgan Hofiz Tanish Buxoriy Imomqulixonga yaqin suhbatdoshlardan bo'lib, uning sha'niga aytgan bir misra she'ri uchun unga o'zing og'irligi barobar oltin bergenini yozgan". Darhaqiqat, Imomqulixon darveshlarni qo'llab-quvvatlagan, atrofiga olimlar va shoirlarni to'plagan benazir podshoh edi. Manbalarga ko'ra, "uning tabiatida ilm ahliga, darveshlarga moyillik ham mavjud edi. U olimlar, shoirlar, darveshlar, o'z zamonasining ulug'lari suhbatini yaxshi ko'rgan. O'zi ham so'fiyona she'rlar mashq qilgan. U ayniqa, shayx Mavlono Yusuf Qorabog'iy suhbatlarini xush ko'rardi. Mavlono Yusuf Qorabog'iy Xurosandan Buxoroga kelib, bu yerda Mulloyi Nav taxallusi bilan mashhur bo'lgan Mirzojon Sherzoqiga murid bo'ladi va Imomqulixon davrida tariqatda kamolotga erishadi.

Ayniqa, shoirlardan Turobiy va Nahliya Imomqulixonning hurmati baland edi. Shoir Nahliy Imomqulixon ga bag'ishlab madhiya yozadi. Nahliy Imomqulixon ga bag'ishlangan "Qasodi devoni Nahliy" nomli devon tuzgan.

Imomqulixon ajoyib she'rlar yozgan. "Otashkada" tazkirasida Imomqulixon ibni Dinmuhammadxonning ruboysi keltirilgan:

*Dar dahr agar sinafigorest, manam,
V-andar rahi e'tibor xorest, manam.
Dar didayi man agar furo 'g'est, tuy,
Dar xotiri tu agar g'uborest, manam.*

(Mazmuni: Bu dunyoda talaba bo'lsa, u men. Bu iz-zat yo'lida izzat, u men. Ko'zimdagи olov bo'lsa to'y, Ko'nglingda chang bo'lsa, u men).

AMIR MUZAFFARNING "HAYO" TAXALLUSI BILAN SHE'R YOZGAN O'G'LINI BILASIZMI?

Amir Muzaffarning shoir farzandlari Amir Abdulla(Ojiz), Siddiqxon(Hashmat) va Nosiriddin to'ralar haqida ma'lumotlarga egamiz. Ammo uning Hayo taxallusi bilan she'r yozgan Nuriddin to'ra nomli o'g'li to'g'risida deyarli hech nima bilmaymiz. Qori Rahmatulloh Buxoriyning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob" tazkirasini qisqartirib nashrga tayyorlagan adabiyotshunos Po'latjon Qayumov ham o'zbek va tojik tillarida she'r yozgan shahzoda shoir Sayyid Nuriddin to'ra haqida tasavvurga ega bo'lmaganligi uchun uni(hozirgi Turkmaniston hududidagi Chorjo'y begi bo'lgani uchun) "turkman bo'lsa kerak", deb taxmin qilgan.

Albatta, Mang'itlar sulolasining ijodkor vakillaridan biri shoir Sayyid Nuriddin to'ra Amir Muzaffarning ikkinchi o'g'lidir. O.Hayitova va H.Qurbanovning "Karmana tarixi" kitobida yozilishicha, "Chor istilosini davrida ota va to'ng'ich o'g'il Abdumalik to'ra o'rtasida ixtilof chiqishi natijasida Amir Muzaffar uni toj-u taxt vorisi huquqidan butunlay mahrum etadi. Ayni paytda Chorjo'y begi vazifasida turgan boshqa o'g'li – Nuriddinni toj-u taxt vorisi etib tayinlamochi bo'lib turganda, u ham to'satdan vafot etadi". Ammo Nuriddin to'rabekligi davrida Chorjo'yadagi saroyida adabiy muhit shakllantirgan, o'zi ham ijod bilan shug'ullangan, atrofiga buxorolik shoirlarni to'plab, adabiy anjumanlar o'tkazgan edi.

Bizning davrimizda unutilgan shahzoda Nuriddin to'ra o'z davrining mashhur shoiri bo'lgan. Ziyo Sadr "Sharifjon Maxdumning shaxsiy kutubxonasi" asarida mang'itlarning ijodkor shahzodasi – Sayyid Nuriddin to'ra haqida to'xtalgan va uni "Fasohat va chechanlik maydoni chavandozi va zakovat o'kkasi hukmdori, xush-

Tarixchi Muhammad Yusuf Munshiy Imomqulixon zamonini temuriy Sulton Husayn davriga qiyos qilgan. Herman Vamberi ham buni tasdiqlab, "uning xonlik davri O'rta Osiyoliklar tomonidan Hirotdagi Sulton Husayn Boyqaro zamoniga o'xshatiladi", degan.

Umrining oxirida Imomqulixon ko'r bo'lib qolgach, taxtni ukasi Nadrmuhammadga topshirib, 1642-yili hajga yo'l oladi. O'sha yerda vafot etgan.

Tazkiralarda ashtarxoniy Nadrmuhammad Sultan (1592–1651) ham shoir sifatida zikr etilgan. U 1642–1645-yillarda Buxoro xonligini boshqargan. Mutribiy "Tazkirat ush-shuarо"da Nasaf viloyati voliysi ashtarxoniylardan Nadrmuhammad Sultan Boqimuhamed Bahodirxonning akasi Dinmuhammadxonning o'g'li deb zikr etib, shahzodaning adabiy majlislari haqida shunday yozgan: "Sultonlik va jahonbonlik martabasiga qaramay, yog'duli ko'nglini suxandonlik yurtlarini ham egallamoqqa yo'naltirib, doimo yarashiqli o'tirishlarini olimlar va fazillar yig'iniga aylantiradi. Va bu mazali va nafis chiqqan baytni ul saltanatpanohga nisbat beradi:

*Chenon zi sinayi so'zon hame kashidam oh,
Ki, barqhoysi falak az sharori oham suxt.*

(Mazmuni: Yongan ko'ksimdan chekardim men shundayin ohkim, Ko'k yashinin alangaltdi, sachratib uchqun ul ohim)".

Nadrmuhammadxon davrida xonlikda ichki nizolar kuchayib, hatto o'zining 12 nafar o'g'li unga bo'ysunmay qo'yadi. Nadrmuhammadxonidan norozi amirlar 1645-yili o'g'li Abdulazizxonni xon deb e'lon qilishadi. Bundan xabar topgan Nadrmuhammadxon Balxga qochadi. U taxtni qaytarib olish uchun Shohjahondan yordam so'raydi. Shohjahon ikki o'g'li Murodbaxsh va Avrangzebga Balxni bosib olishni topshiradi. Nadrmuhammadxon ularga qarshi chiqib, jangda yengiladi. U Safaviylar Eroni hukmdori Abbas II panohiga qochadi va uning dargohida ikki yarim yilcha qolib ketadi. Boburiylar Balxni ikki yil g'orat qilishadi. Muttasil janglar, mamlakatdagi ocharchilik, qattiq qish hind askarlarini holdan toydiradi va shu bois Shohjahon sipohlarini Hindistonga qaytarib oladi. Balxni esa Erondan taklif etilgan Nadrmuhammadxonning topshiradi. Bu hol Nadrmuhammadxonning isyonkor o'g'illarini yana tashvishga solib, ularni birlashishga majbur qiladi. Abdulazizxon ukasi Subhonquli sultonni Balxga hokim etib tayinlaydi. Shundan so'ng Nadrmuhammadxon Balxdan voz kechib, haj safariga yo'l oladi va yo'lda vafot etadi. U Madina yaqinidagi akasi Imomqulixon qabri yonida dafn etilgan.

bayonlik to'pining bayroqdori, suxandonlik osmonining yulduz mingan shohsuvori, dilga yoqar she'rlar nozimi va oliy baytalar shoiri, ko'pnii biluvchi fozi va shirin-zabon donishmand, boshdan-oyoq oqil sanalgan shahzoda, ya'ni Chahorjo'y(Chorjo'y) voliysi, saltanat mevasi, odob egasi Sayyid Nuriddin to'ra", deb alqagan. Bunday ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, shahzoda ajoyib she'rlar yozgan. Nuriddin to'ra she'riyatda Hayo taxallusini qo'llagan. Hatto u she'rlarini to'plab, devon tuzgan bo'lishi ehtimol.

Qori Rahmatulloh Vozehning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob" tazkirasida shahzoda Hayoning she'rlari keltirilgan: "Hayo – bu shoir Chorjo'yidur. Nomi Nuriddinxo'ja. Buxoroda tahsil ko'rmish. Turkmanlardan bo'lishi ehtimolidur. Bu g'azal tojik yozmish nashidasidur:

*Suman uzor, sanobar qad-u g'uncha dahan,
Karashma sozi-yu oshiq kushi-yu simin tan...
Hayo zi nutqi dam afzo tu bar,
Ba xizr umri digar baxshi tu zi chohi zaqan".*

Muxtasar aytganda, kelgusida adabiyotshunos tadqiqotchilarimiz tomonidan Buxoro shahzodasi Nuriddin Hayo hayoti, faoliyati va ijodini o'rganish, tadqiq etish, she'rlarini to'plash taqozo etiladi. Bu esa mumtoz adabiyotimiz tarixida Hayo taxallusli benazir shoiring o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi.

Sherxon QORAYEV,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ADIBLAR VA KITOBLAR



Kitob savdosi tarixida eng qimmat sotilgan kitob Leonardo da Vinci ning "Lester kodeksi" asaridir. Kitobga 1994-yili 30,8 million dollar narx qo'yilgan.

Uni buyuk olimning muxlisi – milliarder Bill Geyts xarid qilgan.

Kitobni kutubxonaga vaqtida topshirmaganlik uchun undirilgan eng yirik jarima 345,14 dollardan iborat bo'lib, bu Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan.

Bolalar uchun chop etilgan "Kunlar

va yumushlar" nomli bu she'riy kitobi qaytarib berish muddati 1955-yilning 19-aprelida tugagan holda, u 47 yildan so'ng, 2002-yilda topshirilgan. Jarimaga kechiktirilgan har bir kun uchun 2 sentdan penya yig'ilma borgan. Kitobni onasining eski uyidan topib olgan illinoyslik qiz jarima bilan birga kutubxonaga olib borib topshirgan. Qoyilmisiz?!

Mark Tvenning "Missisipidagi hayot" asari mashinkada yozilgan dastlab-

ki kitob hisoblanadi. Ko'pchilik uning "Tom Soyerning sarguzashtlari" romanini mashinkada bitilgan birinchi kitobi deb o'ylaydi. Ammo, tarixchi Derril Rerning aytishicha, adibning mashinkada yaratilgan birinchi asari aynan "Missisipidagi hayot" bo'lgan.

1800-yili tashkil topgan AQSH Kongressining kutubxonasi dunyodagi eng katta kitob xazinasidir. Kutubxonaning jamg'armasi jahoning 470 tilida chop etilgan 38 million kitobdan iborat.

Joan Roulingning Garri Potter haqidagi turkum romanlari eng ko'p chop etilgan kitoblar ro'yxatida karvonboshilik qilmoqda. Uning "Garri Potter va falsafa toshi" asari 1997-yildan 2020-yilgacha dunyoning 80 tilida 500 million nusxada chop etilgan. Bu roman keyingi davrning eng ommabop kitobi deya tan olingen. Ammo bu asar mutolaasi AQSHning katolik maktabalariда sehr-jodu, duixonlik va afsungarlik voqealari mavjudligi bois taqiqlab qo'yilgan.

II-IV asrlardan boshlab Qadimgi Rimda xuddi hozirgi kitoblarning

varaqlari singari buklab tikib tayyorlanadigan birinchi muqovali kitoblar – "kodeks"lar paydo bo'lgan.

XV asrning 40-yillarida esa Olmoniyada Iohann Huttenberg tomonidan ilk bor kitob bosish dastgohi ixtiro qilingan.

O'zbek tilidagi birinchi bosma kitob Shohimardon Ibrohimovning 1871-yili Xivada bosingan "Kalendar" kitobidir.

Dunyoda sotilgan kitoblarning yaridan ko'pini 45 yoshdan oshgan kishilar xarid qilishar ekan. Shuningdek, ayollarning erkaklarga nisbatan ko'proq kitob sotib olishlari ham aniqlangan.

Hozirgi paytda dunyodagi eng katta kitob – "Bu – Muhammad(s.a.v.)" nomli asar bo'lib, u Dubaydag'i savdo markazida saqlanadi. Ushbu kitobni tayyorlash uchun 50 kishi 9 oy davomida mehnat qilgan. Kitobning og'irligi 1,5 tonnaga teng.

To'plab taqdim etuvchi:
Xudoyberdi KOMILOV

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI KAFEDRALARDA MAVJUD QUYIDAGI BO'SH(VAKANT) O'RINLARGA TANLOV E'LON QILADI:

KAFEDRA MUDIRI LAVOZIMIGA:

- Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri(1);
- Psixologiya kafedrasini mudiri(1);
- Umumiy psixologiya kafedrasini mudiri(1);
- Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrasini mudiri(1);
- Amaliy psixologiya kafedrasini mudiri(1);
- Oligofrenopedagogika kafedrasini mudiri(1);
- Logopediya kafedrasini mudiri(1);
- Koreys tili va adabiyoti kafedrasini mudiri(1);
- Musiqa nazariyasi va metodikasi kafedrasini mudiri(1);
- Rus tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri(1);
- O'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri(1);
- O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri(1);
- Tasviriy san'at kafedrasini mudiri(1);
- Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri(1);
- Boshlang'ich ta'linda ona tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri(1).

MALAKA TALABLARI:

- Nomzod oliy ta'lim muassasalaridagi boshqaruv lavozimlari da faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan kasbiy va tashkilotchilik qobiliyatlariga, ta'lim sohasida rahbarlik ish tajribasi va stajiga, faoliyat turi va vakolatlari doirasida tegishli bilim va ko'nikmalarga;
- Namunaviy shaxsiy fazilatlar, xushmuomalalik, yuqori intellekt, yetakchilik, ijodkorlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik qibiliyatlariga ega bo'lishi, o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi, mustaqil qaror qabul qilish va ish tutish, qat'iy harakat qilish, muassasa strategik maqsadlariga erishishni ta'minlash singari layoqatlarga ega bo'lishi talab etiladi;

- Kafedra mudiri lavozimiga talabgorlar OTMd'a bakalavr va magistrler tayyorlash yo'naliishlari va mutaxassisliklari dan biri bo'yicha fan doktori yoki nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lishi hamda yo'naliishi bo'yicha kamida 5 yillik samarali ish stajiga ega bo'lishi zarur.



Tanlovda qatnashishni xohlovchilar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 30 kun ichida quyidagi manzilga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin:

**Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi,
27-uy. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining xodimlar bo'limi.
Murojaat uchun telefon: (71) 276-77-14.**



Ergashev Orif Raxmatullayevichning 03.00.09 – Umumiy genetika ixtisosligi bo'yicha "G.hirsutum L. nav va tizmalarining ayrim morfo-xo'jalik belgilari ko'rsatkichlari bo'yicha populyatsiyaviy tarkibining genetik asoslari" mavzusidagi(biologiya fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 18-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz mahallasi.

Tel/faks: (71) 264-22-23, 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz

Nematova Dilfuzaxon To'lanboyevnaning 22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning sotsial omillari" mavzusidagi(sotsiologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 21-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Istiqlol ko'chasi, 51-uy.

Tel/faks: (71) 267-05-36; e-mail: mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com

Nig'matova Shohsanam Nabijon qizining 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Et-nopsixologiya ixtisosligi bo'yicha "Konsultatsiya jarayonida o'zini-o'zi anglashning ijtimoiy psixologik xususiyatlari(Akademik litsey o'quvchilar misolida)" mavzusidagi(psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03/30.12.2021.P.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 21-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-67-72; e-mail: nauka@nuuz.uz

Sagdiyeva Yulianna Anatolevnaning 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak pedagog-psixologlar ijtimoiy-psixologik kompetentligining rivojlanish xususiyatlari" mavzusidagi(psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03/30.12.2021.P.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 21-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-67-72; e-mail: nauka@nuuz.uz

Ruzimatov Islomjon Erkuzyevichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtrish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Sport takomillashtuv bosqichida bosqon uloqtiruv-chilarning texnik tayyoragarlik samaradorligini oshirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-noyabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri,

Metallurglar ko'chasi, 15-uy.

Tel/faks: (70) 717-17-19, 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.uzdjsu.uz, e-mail: uzdjsu@uzdjsu.uz

Eshonxodjayeva Dildora Djo'ra qizining 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "COVID-19 ga bog'liq miokarditli ayollarda homiladorlikni olib borishni optimallashtirish" mavzusidagi(tibbiyat fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 20-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,

Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.

Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Sharofaddinov Shihnazar Anvarovichning 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda natijaga yo'naltirilgan ta'limning metodik tizimini takomillashtirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 22-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2 mavzesi, 96-uy.

Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Abdullayev Barxayotjon Bo'riyevichning 23.00.03 – Siyosiy madaniyat va mafkura ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston yoshlari siyosiy madaniyatida qadriyatlar tizimining o'zgarish jarayoni" mavzusidagi(siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 19-noyabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-58-34; e-mail: devonxona@nuu.uz

Berdiqulov Xudojshukur Keldiyorovichning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Biostimulyatorlarning Crotalaria junsea o'simligining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri(Jizzax viloyati sharoitida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/31.03.2023.Qx.159.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 23-noyabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani,

Kuygan-yor shaharchasi, Andijon ko'chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05; e-mail: www.ddeiti.uz, ddeiti-19@mail.ru, e-xat manzil: ddeitia.qochqarov@exat.uz

Raxmatov Idrok Ilxomovichning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Buxoro viloyati sharoitida takroriy muddatda shirin makkajo'xori yetishtrish texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/31.03.2023.Qx.159.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 23-noyabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani,

Kuygan-yor shaharchasi, Andijon ko'chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05; e-mail: www.ddeiti.uz, ddeiti-19@mail.ru, e-xat manzil: ddeitia.qochqarov@exat.uz

Karimova Maftuna Xudaybergan qizining 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Bolalarda bronxial astmaning klinik va immunogenetik aspektlari. Olib borish taktikasini takomillashtirish" mavzusidagi(tibbiyat fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 20-noyabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,

Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.

Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Najmiddinov Behzod Mannonovichning 23.00.02 – Siyosiy institutlar, jaryonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda siyosiy partiylar faolligini oshirish jarayonida ilg'or xorij tajribasini qo'llash imkoniyatlari" mavzusidagi(siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 21-noyabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Abdulkakimov Sherzod Alisher o'g'lining 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Surunkali buyrak yetishmovchiligidagi ingichka ichakning morfologik xususiyatlari" mavzusidagi(tibbiyat fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 21-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200007, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@bsmi.uz

Pulatov Azizjon Allayor o'g'lining 06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha "Nok bog'larida zamburug' qo'zg'atadigan kasalliklar va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiysi, urug'chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 21-noyabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani,

"Botanika" MFY, O'zPITI ko'chasi, PSUEAITI.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Maxramov Umidjon Shokirjonovichning 23.00.02 – Siyosiy institutlar, jaryonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy adolat tamoyillari asosida siyosiy mexanizmlarni takomillashtirish" mavzusidagi(siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 19-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

"Ma'rifat" va "Uchitel' Uzbekistana" gazetalari jamoasi gazeta muxbiri Nazokat Xolmetovaga otasi

Baxtiyor XOLMETOVning

vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.



Ma'rifat



Marifat

Учимсаб
УЗБЕКИСТАНА

gazetalari
hamisha
siz bilan birga

OBUNA INDEksi

Imtiyozli

149

Imtiyozli, arzonlashtirilgan
narxda obuna uchun
to'liq bir yilga
obuna bo'lishingiz kerak bo'ladi.

150

1 yildan kam muddatga ham
(3 oy, 6 oy) obuna
bo'lishingiz mumkin.

Imtiyozli

216

217

"Ma'rifat" gazetasining barcha sonlari
telefoningizda bo'lishini istaysizmi?

"Ma'rifat" ilovasi
aynan siz uchun!

Mobil ilovani yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:



**2025-yil uchun
obuna boshlandi!**



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi,
O'zbekiston oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yhatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-5835. Tiraji 7250

Hajmi 4 bosma taboq. Offset usulida bosilgan
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (71) 212-01-50



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririylat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiz
qilinmaydi va mual-
lifiga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

↑ – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099 Toshkent shahri
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa
ijodi yida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.